97. Fotosintez jarayonida 12 molekula organik birikma vodorodi ishtirok etgan bo'lsa, fotoliz jarayonida necha molekula suv dissotsiyalangan?

A)12 B)24 C) 36 D) 18

98. 1620 gramm glukoza kislorod yetarli bo'lmagan sharoitda parchalandi va 5 mol sut kislotasi hosil bo'ldi. Ushbu reaksiyada ajralib chiqqan energiyani necha % i ATF sifatida to'planganini hisoblang.

A) 53,9 % B) 40 % C) 56,4 % D) 52,7 %

99. Glukoza molekulasini kislorod yetarli bo'lmagan sharoitda parchalaganda hosil bo'lgan uglerod dioksidning miqdori sut kislotaning miqdoridan 10 marta katta bo'lsa va bu jarayonda 386 mol ATF

sintez qilinsa, parchalangan glukozaning massasini toping.

A) 2700 gr B)2340 gr

C) 2520 gr D)3420 gr

100. 8 mol glukoza parchalandi. Shundan ikki mol to'liq parchalandi. Jami qancha ATF hosil bo'ldi.

A) 304 B) 72 C) 88 D) 76

N-5 Genetika

1. Digeterozigota organizm necha xil gameta hosil qiladi.

A) 8 B) 2 C) 4 D) 16

2. $AABbCcDdEe \times AaBBCCDDee$ chatishtirilsa, nechta kombinatsiya hosil bo'lishi mumkin?

A)8 B) 16 C) 32 D) 64

3. Quyidagi genotiplarning qaysi biridan eng ko'p gameta olinadi?

A) $AABbCcDD$

B) $aaBBcCDDee$

C) $aabbCcDdEe$

D) $AaBbCCdd$

4. Tetrageterozigotali ikki organizm o'zaro chatishtirilsa F_1 da nechta individ hosil bo'lishi mumkin?

A) 512 B) 64 C) 128 D) 256

5. Qanday genotiplardan 4 xil gameta olish mumkin?

1) $AaBb$ 2) $AaBBCC$ 3) $AaBbCC$ 4) $AaBB$

5) AABbCcDd 6) AABb 7) AaBBCCDD

8) aaBb 9) AaBBccDd

A) 2,4,5,9 B) 1,2,7,8 C) 1,2,3,4 D) 1,3,7,9

6. $X^A X^a Bb Dd$ genotipli organizm necha xil gameta beradi.

A) 16 B) 4 C) 8 D) 32

7. $BBX^A X^a dd$ genotipli organizm necha xil gameta hosil qiladi.

A) 2 B) 4 C) 16 D) 32

8. $X^A X^a Bb Dd$ genotipli organizm qanday gametalarni hosil qilmaydi (1) va hosil qiladi (2)? a) $X^A BD$ b) $X^A Bd$ c) $X^A Bb$ d) $X^a BD$ e) $X^a Bd$ f) $X^A bD$ j) $X^A bd$ i) $X^a Dd$ k) $X^A X^a d$

A) 1-c,i,k; 2-a,b,d,e,f,j
B) 1-a,b,c,d; 2-e,f,j,i,k
C) 1-a,b,d,e,f,j; 2-c,i,k
D) 1-e,f,j,i,k; 2-a,b,c,d

9. Qanday genotipli organizmlar chatishtirilsa avlodda 64 xil kombinatsiya hosil bo'ladi?

A) $AaBbCc \times AaBbCc$
B) $AaBbCc \times aabbcc$
C) $aaBbCc \times AABbCc$
D) $AaBbCc \times AaBbcc$

10. Qaysi genotipli organizmlar 2 ta (1), 4 ta (2), 8 ta (3), 16 ta (4) gameta hosil qiladi? a) $aabbccDd$ b) $aaBbCcdd$ c) $AABbCcdd$ d) $AabbCcDd$ e) $AaBbCcDDEe$ f) $aaBbccddee$ j) $AabbCCDd$ k) $aaBbccDdEe$ l) $aaBbCcDdEe$

A) 1-a,f; 2-b,j; 3-d,k; 4-e,l

B) 1-a,f; 2-d,k; 3-f,b; 4-e,l

C) 1-a,j; 2-f,k; 3-d,b; 4-c,l

D) 1-a,c; 2-b,k; 3-d,l; 4-e,f

N-6 Genetika

1. Birinchi qon guruhi - $I^0 I^0$, ikkinchi qon guruhi - $I^A I^A$ yoki $I^A I^0$, uchinchi qon guruhi $I^B I^B$ yoki $I^B I^0$, to'rtinchi qon guruhi $I^A I^B$. Ota va ona qon guruhi ikkinchi va uchinchi gomozigotali holatda bo'lsa, ularning farzandlari qanday qon guruhli bo'lishi mumkin?

A) I, II, III B) II, IV C) II, III D) IV

2. Odamlarda uchraydigan daltonizm kasalligi retsessiv d geni bo'lib, jinsiy X xromasomada joylashgan. Quyida ota-onalardan tug'iladigan farzandlarning kasal va sog'lom tug'ilish ehtimolligi fenotipik jihatdan qanday nisbatda bo'ladi (%)? $X^D X^d \times X^D Y$

A) 50%; 50% B) 25%; 75%

C) 75%; 25% D) barchasi sog'lom

3. Qovoq mevasining oq rangi - W, sariq rangi - Y, yashil rangi - y gen bilan ifodalanadi. W gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi. Quyidagi chatishtirishdan necha xil genotipli organizm olinadi? $WwYy \times Wwyy$

A) 8 B) 6 C) 16 D) 64

4. Tahliliy chatishtirish bo'yicha olingan duragaylarda genotip bo'yich 1:1:1:1 nisbatda ajralish namayon bo'lgan. Ota - ona genotipi qanday bo'lishi mumkin.

A) $AaBb \times aabb$; $Aabb \times AAbb$
B) $AaBb \times aabb$; $aaBb \times Aabb$
C) $AaBb \times aabb$
D) $AaBbCc \times aabbcc$

5. Oq patli tovuqlar o'zaro chatishtirilgan F_1 da barcha tovuqlar oq patli, F_2 da 400 ta jo'ja olindi. F_2 da olingan qora patli genotipik guruhlarning necha foizi 2 ta gen bo'yicha gomozigota genga ega. (Bu chatishtirishda epistaz ta'sir ro'y bergan).

A) 50 B)100 C)75 D)25

6. Genlarning epistaz ta'sirida F_2 da olingan oq patli tovuqlar necha xil genotipga ega bo'ladi?

A) 9 B) 2 C) 7 D)13

7. Genlarning polimer ta'sirida fenotip bo'yicha 1:4:6:4:1 nisbati ajratilsa, genotip bo'yicha qanday ajralish bo'ladi.

A)1:2:3:2:1
B)1:2:1
C)1:2:1:2:4:2:1:2:1
D)3:6:3:1:2:1

8. Drozafila pashshasining tanasi kulrang, qanoti uzun bo'lgan erkak va tanasi qora, qanoti kalta bo'lgan urg'ochisi chatishtirildi. F_1 da faqat tanasi kulrang, qanoti uzun forma olindi. F_1 dagi urg'ochi pashsha qora tanali, kalta qanotli erkak bilan chatishtirilganda avlod necha foiz duragay kulrang tanali, kalta qanotli bo'ladi.

A) 50 B)25 C)8,5 D)37,5

9. Tahliliy chatishtirish natijasida birinchi bo'g'inda genotip va fenotip bo'yicha 1:1 nisbatda ajralish yuzaga kelsa, bu holda genotipi noaniq bo'lgan organizmning genotipi qanday bo'ladi?

A) retsessiv gomozigotali
B) dominant gomozigotali
C) geterozigotali
D) retsessiv geterozigotali

10. O'rta quloq suyakchalarining noto'g'ri rivojlanishidan otoskleroz kasalligi kelib chiqadi. Karlikka olib keluvchi bu kasallik autosomada-dominant holda irsiylanadi. Ota-ona geterozigotali bo'lgan oilada genotipi ota-onanikiga o'xshash bolalarning tug'ilish extimolini toping.

A)75% B)25% C)100% D)50%

11. Pomidor mevasining yumaloq shakli (A), noksimon shakli (a) ustidan, qizil rangi (B) sariq rangi (b) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada yumaloq qizil rangli va noksimon sariq rangli pomidorlar o'zaro chatishtirildi. F_1 da 100 % yumaloq qizil rangli duragaylar olindi. Ota-ona formalarining genotipini aniqlang.

A) $AaBB \times aabb$
B) $AABb \times aabb$
C) $AaBb \times aabb$
D) $AABB \times aabb$

12. Qoramollarda shoxsizlik geni shoxlilik geni ustidan, qora rang geni qizil rang ustidan dominantlik qiladi. Agar ikkala belgi bo'yicha geterozigota buqa va sigirlar chatishtirilganda nazariy jihatdan 448 ta buzoq olinsa, ulardan qanchasi shoxsiz bo'ladi?

A)336 B)84 C)364 D)112

13. Qovoqlarda mevaning sariq rangda bo'lishi U geni, yashil bo'lishi u geni bilan ifodalanadi. S geni rang yuzaga chiqishini to'sib qo'yadi (rangsiz – oq bo'ladi). s rangga ta'sir qilmaydi. Quyidagi UUSs × Uuss genotipga ega organizmlardan necha xil fenotipga ega mevalar olinadi?

A) 4 B) 3 C) 2 D) 1

14. Tovuqlarda oddiy toj- aabb, no'xotsimon toj- aaBB yoki aaBb, gulsimon toj – Aabb yoki AAbb, yong'oqsimon toj- A va B geni bo'yicha dominant ko'rinishlarda bo'ladi. Quyidagi qaysi tovuq va xo'rozlar chatishtirilganda F₁ da 3 ta yong'oqsimon, 3 ta gulsimon va bittadan oddiy hamda no'xotsimon tojli jo'jalar olinadi?

A) AABb × AaBB
B) Aabb × AaBb
C) AaBb × aaBb
D) AaBB × AaBb

15. No'xat donining sariq rangi (A) yashil rang (a) ustidan, tekisligi (B) burishganligi (b) ustidan, gultojibargining qizil rangi (C) oq rangi (c) ustidan dominatlik qiladi. Quyidagicha genotipga ega organizmlarning qaysi birini chatishtirish natijasida 4 ta sariq, tekis, qizil va 4 ta yashil, tekis, qizil formalarni olish mumkin?

A) AaBbCc × aabbcc
B) AABBCc × AaBbCC
C) aabbCC × AabbCc
D) AaBbCC × aaBBCC

16. Odamlarda sochning Jingalak bo'lishi (J), silliq bo'lishi (j) geni ustidan chala dominantlik qiladi, shuning uchun geterozigotali sochli to'lqinsimon

bo'ladi. Sochlari to'lqinsimon bo'lgan ayol, sochlari silliq bo'lgan erkakka turmushga chiqdi. Bu oila farzandlarining fenotip va genotipi qanday?

A) 100 % to'lqinsimon: Jj
B) 75 % jingalak; 25% silliq; Jj, jj
C) 50% jingalak; 50% silliq; JJ, jj
D) 50% to'lqinsimon va 50% silliq; Jj, jj

17. Qovoq U-geni mevaning sariq bo'lishini, u-geni yashil bo'lishini, S-dominant supressor, s-retsessiv suppressor. Ikki oq rangli qovoqlar o'zaro chatishtirilishi natijasida F₁ da faqat oq rangli qovoqlar olingan bo'lsa, ota-ona genotipini toping.

A) UUSs × uuss B) UuSS × UuSS
C) uuSS × uuss D) Uuss × uuSS

18. Bulg'or garmdorilarining qizil va yashil, yupqa va qalin etli xillari ajratiladi. Qizil rangni boshqaruvchi gen dominant, qalin etli bo'lishi retsessiv genga bog'liq. Ikki gen ham har xil autosomalarda joylashgan. Agar digeterozigotali qizil va yupqa po'stli garmdori har ikki belgi bo'yicha retsessiv gomozigota xili bilan chatishtirilsa F₁ da qanday genotipga ega garmdorilar olish mumkin?

A) AaBb, Aabb, aaBb, aabb
B) AABb, AAbb, AaBB, AaBb
C) aabb, Aabb
D) AABb, AaBb, aaBb, aabb

19. Digeterozigota sariq rangli, silliq shaklli donga ega bo'lgan ikki no'xot navlari o'zaro chatishtirilganda, avlodda sariq rangli donning yashil rangga, silliq donning burishgan donga nisbati qanday bo'ladi?

- A) Har bir belgi bo'yicha 3:1
 B) Rang bo'yicha 3:1; shakl bo'yicha 1:1
 C) Rang bo'yicha 1:1; shakl bo'yicha 3:1
 D) Har bir belgi bo'yicha 1:1

20. Genlarning epistaz ta'siriga ko'ra tovuqlarning oq patli (1) va qora patli (2) formalarini ajrating. a) IICC b) IiCc c) iiCC d) Iicc e) iiCc f) iicc

- A) 1-c,e; 2-a,b,d,f
 B) 1-a,b,d,f; 2-c,e
 C) 1-a,b,c,d; 2-e,f

21. Gemofiliya retsessiv belgi bo'lib, X-xromasomaga bog'liq holda irsiylanadi. Agar ota sog'lom, ona kasallik tashuvchi bo'lsa, bu oilada tug'ilgan o'g'illarning necha foizi kasal tug'ilishi mumkin?

- A) 25 B) 50 C) 75 D) 100

22. Odamda ter bezlarining bo'lmasligi retsessiv belgi bo'lib, X xromasomaga bog'liq holda irsiylanadi. Oilada ota va og'il bu anomaliyaga ega bo'lib, ona sog'lom bo'lsa, o'g'ilga bu anomaliyaning otadan o'tganligi ehtimoli qanday (%)?

- A) 0 B) 25 C) 75 D) 50

23. Odamlarda sochning qora rangi malla rang soch ustidan, sepkillilik sepkilsizlik ustidan dominantlik qiladi. Qora sochli sepkilli (ikki belgi bo'yicha geterozigotali) yigit malla sochli, sepkilsiz ayol bilan turmush qursa, avlodda qanday genotiplilar olinmaydi?

- A) AaBB, aaBB
 B) AaBb, aabb
 C) Aabb, aaBb
 D) AaBb, Aabb

24. G'ozatolasining qo'ng'ir rangi gomozigota holatdagi gen bilan ifodalanadi. Ushbu genning retsessiv alleli oq rangni yuzaga keltiradi. Geterozigota holdagi individlarda tolasi novvot rangda bo'ladi. Qo'ng'ir tolali bilan oq tolali g'ozat navlari o'zaro chatishtirilganda F_2 dagi duragaylar orasidan 580 tasining tolasi novvot rangli bo'lgan. Duragaylardan nechitasi qo'ng'ir rangli tolaga ega?

- A) 1160 B) 290 C) 1740 D) 580

25. Odamlarda karlikning 2 ta turi mavjud bo'lib, ulardan birinchisi dominant (A), ikkinchisi esa retsessiv (b) genlar bilan belgilanadi. Quyidagi chatishtirishlarning qaysi birida naslda 5 ta kar, 3 ta sog'lom nisbatda ajralish ro'y beradi?

- A) AaBb × aabb
 B) AaBb × aaBb
 C) AaBb × Aabb
 D) AaBb × AaBb

26. Odamlarda talassemiya (A) chala dominant holda irsiylanadi. Dominant gomozigotalar erta halok bo'ladi, geterozigotalar yashaydi. O'roqsimon anemiya (b) retsessiv gomozigota holatda o'limga olib keladi, geterozigotalar yashaydi va kasallikning yengil formasi bilan kasallangan bo'ladi. Digeterozigota ota-onalardan tug'ilgan farzandlarning necha foizi genotip jihatdan ota-onaga o'xshaydi?

- A) 12,5 B) 25
 C) 50 D) 75

27. Odamlarda talassemiya (A) chala dominant holda irsiylanadi. Dominant gomozigotalar erta halok bo'ladi, geterozigotalar yashaydi. O'roqsimon anemiya (b) retsessiv gomozigota holatda o'limga olib keladi, geterozigotalar yashaydi va

kasallikning yengil formasi bilan kasallangan bo'ladi. Digeterozigota ota-onadan tug'ilgan farzandlarning necha foizi halok bo'ladi?

A) 43,7 B) 25 C) 50 D) 75

28. Odamlarda talassemiya (A) chala dominant holda irsiylanadi. Dominant gomozigotalar erta halok bo'ladi, geterozigotalar yashaydi. O'roqsimon anemiya (b) retsessiv gomozigota holatda o'limga olib keladi, geterozigotalar yashaydi va kasallikning yengil formasi bilan kasallangan bo'ladi. Digeterozigota ota-onalardan tug'ilgan farzandlarning necha foizi talassemiyaning yengil formasi bilan kasallanadi.

A) 25 B) 31,25 C) 50 D) 75

29. Odamlarda talassemiya (A) chala dominant holda irsiylanadi. Dominant gomozigotalar erta halok bo'ladi, geterozigotalar yashaydi. O'roqsimon anemiya (b) retsessiv gomozigota holatda o'limga olib keladi, geterozigotalar yashaydi va kasallikning yengil formasi bilan kasallangan bo'ladi. Digeterozigota ota-onadan tug'ilgan farzandlarning necha foizi ikkala kasallik bo'yicha sog'lom bo'ladi?

A) 6,25 B) 25 C) 31,25 D) 50

30. Odamda sochning jingalakligi (A) silliq (a) ustidan chala dominantlik qiladi, geterozigotalarning sochi to'liqinsimon bo'ladi. Daltonizm (d) esa retsessiv belgi bo'lib, jinsga bog'liq holda irsiylanadi. Digeterozigota qiz to'qinsimon sochli sog'lom yigitga turmushga chiqdi. Tug'ilgan farzandlarning necha foizi jingalak sochli sog'lom va jingalak sochli daltonik bo'ladi?

A) 25 va 6,25

B) 18,75 va 6,25

C) 75 va 25

D) 25 va 50

31. Makkajo'xori so'tasining uzunligi polimer genlar (A_1 va A_2) bilan belgilanadi. Dominant digomozigotali formalar so'tasining uzunligi 24 sm, retsessiv digomozigotali formalar so'tasining uzunligi 16 sm bo'lsa, F_2 da 16 sm li so'taga ega bo'lgan formalar naslning necha foizi tashkil etadi?

A) 6,25 B) 25 C) 37,5 D) 50

32. Pushti rangli qulupnaylarni o'zaro chatishtirilganda olingan avlodlar orasida 1500 o'simlik qizil rangli chiqdi. Duragaylar orasida taxminan nechitasi pushti rangli bo'lgan?

A) 1500 B) 3000 C) 750 D) 4500

33. Quyonlarning quloq suprasining 24 sm uzunlikda bo'lishi dominant $D_1D_1D_2D_2$ genlarga, 12 sm uzunlikda bo'lishi retsessiv $d_1d_1d_2d_2$ genlarga bog'liq. Quloq suprasini uzun (24 sm) bo'lgan Baron quyon zoti quloq suprasini kalta (12 sm) bo'lgan zot bilan chatishtirilgan. F_1 duragayining quloq suprasining uzunligi toping.

A) 21 sm B) 18 sm C) 15 sm D) 16 sm

34. Quyonlarning quloq suprasining 24 sm uzunlikda bo'lishi dominant $D_1D_1D_2D_2$ genlarga, 12 sm uzunlikda bo'lishi retsessiv $d_1d_1d_2d_2$ genlarga bog'liq bo'lsa, quloq suprasining uzunligi 18 sm bo'lgan organizmlarning genotipi qanday bo'lishi mumkin? 1) $D_1D_1D_2D_2$ 2) $D_1d_1D_2D_2$ 3) $D_1D_1D_2d_2$ 4) $D_1D_1d_2d_2$ 5) $D_1d_1d_2d_2$ 6) $d_1d_1d_2d_2$ 7) $d_1d_1D_2d_2$ 8) $D_1d_1D_2d_2$ 9) $d_1d_1D_2D_2$

A) 2,3 B) 4,8,9 C) 5,7 D) 1,6

35. Qovoqda U-geni mevaning sariq rangini, u-geni yashil rangini ifodalaydi. S-dominant ingibitor, s-qovoqlarda rangni yuzaga chiqishiga to'sqinlik qilmaydi. Quyida berilgan genotiplarni tahlil qilib, oq rangli qovoqlar berilgan javobni toping. 1)UuSS 2)UuSs 3)Uuss 4)UUSs 5)uuss 6)uuSs 7)UUss 8)uuSS

A)3,5 B)1,2,4,6,8 C)1,2,5,7,8 D)5

36. Qovoqda U-geni mevaning sariq rangini, u-geni yashil rangini ifodalaydi. S-dominant ingibitor, s-qovoqlarda rangni yuzaga chiqishiga to'sqinlik qilmaydi. Tajribada digeterozigota oq rangli qovoq, yashil rangli qovoq bilan chatishtirilgan. F₁ da qanday fenotipik xilma-xillik vujudga kelishini aniqlang.

- A) 50 % yashil; 25% sariq; 25% oq
B) 50% oq; 25% sariq; 25% yashil
C) 50% sariq; 50% oq
D) 100% sariq

37. Gullarining qizil rangi(A) oq rangi ustidan, poyasining balandligi(B) pastligi ustidan, ertapisharligi(C) kechpisharligi ustidan dominantlik qiladi. Shu 3 belgi bo'yicha noma'lum genotipli organizmlar chatishtirilganda F₁ da jami 960 ta o'simlik olindi. Shu olingan o'simliklardan 720 tasini ertapishar o'simliklar tashkil etsa ota-onaning genotipini aniqlang.

- A) AaBbCc x AaBbCc
B) AABBCc x AABbCc
C) AABBCc x AABBCC
D) AABBCC x aabbcc

38. No'xatning uzun poyali, oq gultojbargli formasi kalta poyali qizil gultojbargli formasi bilan chatishtirildi. Bunda F₁ da 120ta uzun poyali qizil

gulli o'simlik hosil bo'ldi. F₂da hosil bo'lgan 720 ta o'simlikdan nechitasi uzun poyali qizil gultojbargli?

A) 135 B) 360 C) 150 D) 405

39. Odamda qo'y ko'zlik va o'naqaylik dominant. Erkak ko'kko'z, o'naqay bo'lib, uning onasi chapaqay bo'lgan. Ayol ko'kko'z va o'naqay bo'lgan turmushdan ko'kko'z, chapaqay bola tug'ilishi ehtimolini toping. Bu oilada oldin ko'kko'z chapaqay bola tug'ilgan.

A) 25% B) 12,5% C) 50% D) 0%

40. Odamda qo'y ko'zlik va o'naqaylik dominant. Erkak ko'kko'z va o'naqay (uning onasi chapaqay bo'lgan), ayol qo'yko'z va o'naqay bo'lgan turmushdan gomozigotali ko'kko'z, o'naqay bola tug'ilishi ehtimolini toping. (Bu oilada oldin ko'kko'z chapaqay bola tug'ilgan).

A) 25% B) 12,5% C) 50% D) 37.5%

N-7 Genetika

1. Arpa o'simligida xlorofill pigmentini sintezlashda ikkita ferment qatnashadi. Ularning bo'lmasligi pigment sintezining buzilishiga olib boradi. Har bir fermentning sintezi har xil autosomalarda joylashgan dominant (A va B) genlar bilan ifodalanadi. Birinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmasligi o'simliklarning oq rangda, ikkinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmasligi o'simliklarning sariq rangda bo'lishiga olib keladi. Ushbu genlarning birgalikda bo'lmasligi o'simlikning oq rangini, birgalikda bo'lishi yashil rangini ta'minlaydi. Agar digeterozigotali arpalar o'zaro chatishtirilsa, avlodda olingan barcha o'simliklar orasidan oq rangli o'simliklarning necha foizi gomozigotali bo'ladi?

A) 50 B) 6,25 C) 25 D) 12,5

2. Insonlarda yuqori qovoqning osilgan bo'lishi, qoshning sertuk bo'lishi, burunning katta bo'lishi dominant belgi hisoblanadi. Agar qoshi sertuk, qovog'i normada, burni katta, genotip bo'yicha gomozigota erkak siyrak qoshli, qovog'i osilgan va burni kichik gomozigotali ayolga uylansa, ularning farzandlari orasida necha foizining qoshi sertuk, qovog'i osilgan va burni katta bo'ladi?

A) 75 B) 25 C) 0 D) 100

3. Otlarda tanasi qora rangda bo'lishi malla rang ustidan ustunlik qiladi. Lekin bu ranglar ikkinchi juft allel bo'lmagan gen tomonidan boshqarilib, uning retsessiv alleli (b) rang ta'sirini bo'g'ib, oq rangni yuzaga chiqaradi. Digeterozigota otlar

chatishtirilganda necha xil genotipik (a) va fenotipik (b) sinf hosil bo'ladi?

A) a-9 b-4 B) a-16 b-16 C) a-9 b-3 D) a-16 b-8

4. Qoramollarda shoxsizlik geni shoxlilik geni ustidan, qora rang geni qizil rang geni ustidan dominantlik qiladi. Agar ikkala belgi bo'yicha geterozigota buqa va sigirlar chatishtirilganda nazariy jihatdan 448 ta buzoq olinsa, ulardan qanchasi shoxsiz bo'ladi?

A) 112 B) 336 C) 364 D) 84

5. Kataraktaning ikki xil irsiy shakllari bor. Birinchisi autosoma dominant tipda, ikkinchisi autosoma retsessiv tipda birikmagan holda irsiylanadi. Kataraktaning autosoma dominant tipi bilan kasallangan geterozigotali, retsessiv tipi bo'yicha sog' va gomozigotali qo'yko'z er-xotin nikohidan sog'lom, ko'k ko'zli farzand tug'ilgan. Tug'ilgan farzandlarning necha foizi faqat ikkita belgi bo'yicha geterozigotali bo'ladi?

A) 50 B) 31,25 C) 25 D) 43,75

6. Otlarda tanasi qora rangda bo'lishi malla rang ustidan ustunlik qiladi. Lekin bu ranglar ikkinchi juft allel bo'lmagan gen tomonidan boshqarilib, uning retsessiv alleli (b) rang ta'sirini bo'g'ib, oq rangni yuzaga chiqaradi. aaBB genotipli otning fenotipini aniqlang.

A) malla B) oq C) yo'l-yo'l D) qora

7. Viadont tovuqlarda chipor patning ba'zilar oltin rangda ba'zilar kumush rangda tovlanadi. Oltin rangli chipor belgi retsessiv, kumsuh rangli chipor belgi dominant bo'lib, bu belgilar jinsga bog'liq holda irsiylanadi. Kumush rang chipor patli tovuqni

oltin rang chipor patli xo'roz bilan chatishtirib 50 ta jo'ja olingan. Ulardan nechitasi tovuq (a) va F1 da necha xil genotip (b) hosil bo'lgan?

- A) a-25 ta; b-2 xil
- B) a-25 ta; b-4 xil
- C) a-50 ta; b-2 xil
- D) a-50 ta; b-4 xil

8. Makkajo'xori maysalarining sariq va yaltiroq bo'lishi yashil va xira bo'lishiga nisbatan retsessiv belgidir. Bu genlar birikkan holda irsiylanadi. Genlari bo'yicha digeterozigota bo'lgan o'simlikdan tahliliy chatishtirish natijasida olingan 726 ta o'simlikdan 128 tasi krossingover formalar ekanligi aniqlandi. Hosil bo'lgan o'simliklarning nechitasi ota va ona genotipiga ega bo'ladi?

- A) 299 B) 598 C) 128 D) 363

9. Ma'lum bir navli piyoz o'simligida piyozboshning qizil rangi sariq rangga nisbatan ustunlik qiladi, lekin ikkinchi juft noallel genning retsessiv alleli rang ta'sirini bo'g'ib, oq rangni yuzaga chiqaradi. Digeterozigota o'simliklar chatishtirilganda olingan qizil piyozboshli o'simliklar necha xil genotipik sinf hosil qiladi?

- A) 9 B) 2 C) 4 D) 3

10. Achambitining uchburchak qo'zoq mevali turi oval qo'zoq mevali turi bilan chatishtirilganda birinchi avlod duragaylari barchasining mevasi uchburchak qo'zoq mevali bo'ldi. Ikkinchi avlodda esa, qo'zoq mevasi uchburchak bo'lgan o'simliklarning qo'zoq mevasi oval shakldagi o'simliklarga nisbati 15:1 bo'ldi. Ushbu chatishtirishdagi birinchi avlod duragaylarining ota-ona genotipi va fenotipini aniqlang.

- A) AABB (oval) x aabb (uchburchak)
- B) AABB (uchburchak) x aabb (oval)
- C) aaBB (oval) x AAbb (uchburchak)
- D) AAbb (oval) x aaBB (uchburchak)

11. Odamda kar-soqovlikning ikki xil turi mavjud bo'lib, har xil juft autosoma xromosomalarda joylashgan va bir-biri bilan birikmagan holda irsiylanadigan retsessiv belgilardir. Kar-soqovlikning bir xil turi bilan kasal, ikkinchi turi bo'yicha geterozigotali bo'lgan yigit va qiz oilasida sog' bolalarning tug'ilish ehtimolini toping.

- A) 100% B) 0% C) 50% D) 75%

12. Ma'lum bir navli piyoz o'simligida piyozboshning qizil rangi sariq rangga nisbatan ustunlik qiladi, lekin ikkinchi juft noallel genning retsessiv alleli rang ta'sirini bo'g'ib, oq rangni yuzaga chiqaradi. Digeterozigota o'simliklar chatishtirilganda olingan avlodning necha foizida piyozboshi qizil bo'lmaydi?

- A) 62,5% B) 43,75% C) 56,25% D) 37,5%

13. G'o'zada poyasining uzun bo'lishi kalta poya ustidan to'liq dominantlik qiladi, tolaning malla rangi oq rangi ustidan chala dominantlik qiladi, tolaning novvot rangda bo'lishi oraliq xarakterga ega. Digeterozigota g'o'zalar o'zaro chatishtirilganda avlodda 640 ta o'simlik olingan bo'lsa, oq tolali g'o'zalar sonini aniqlang.

- A) 120 ta B) 240 ta C) 160 ta D) 360 ta

14. Drozofila pashshasida qanot shakli va tana rangini ifoda etuvchi genlar bitta xromosomada joylashgan. Erkak va urg'ochi drozofila pashalariga A va B genlari faqat otasidan o'tgan. Digeterozigota kulrang tanali, normal qanotli urg'ochi va erkak

drozofila pashshalari o'zaro chatishtirildi. Avlodda allel genlarning o'rin almashishi natijasida krossingover foizi 17% ni tashkil etdi. Avlodning necha foizi fenotip jihatdan ota-onasiga o'xshamaydi?

A) 25 B) 29,25 C) 37,5 D) 43,75

15. Qizil gulli va tik changchili xushbo'y no'xat bilan oq gulli va egilgan changchili xushbo'y no'xat o'zaro chatishtirilganda F1 da 150 ta o'simlikning barchasi qizil gulli va tik changchili bo'ldi. F1 avlod o'zaro chatishtirilganda 2400 ta o'simlik olindi. F2 avlodda nechta o'simlik oq gulli va egilgan changchili bo'lgan?

A) 450 B) 600 C) 1350 D) 150

16. Terining rangi odamlarda ikki xil gen bilan belgilanadi. AABB genotipli odamlarning terisi qora, aabb genotipli odamlarniki oq bo'ladi. Genotipda uchta dominant gen bo'lsa qoramtir, ikkita bo'lsa oraliq, bitta bo'lsa oqish bo'ladi. Terisi oraliq rangdagi digeterozigota ayol va erkak turmushidan terisi oraliq rangli farzandlar tug'ilish ehtimoli necha foiz bo'ladi?

A) 37,5 B) 25 C) 6,25 D) 66,7

17. Itlarning bir zotida tanasi rangi ikki juft allel bo'lmagan genlar bilan boshqariladi. Genotip A-B-holatda tanasi rangi qora, A-bb holatda malla; aaB-holatda jigarrang hosil bo'ladi. Ikki juft retsessiv genga ega bo'lgan itlar tanasi och sariq rangda bo'ladi. Qora urg'ochi va malla rangdagi erkak itlar chatishtirilganda qora, malla, och sariq, jigarrang itlar hosil bo'lgan. Jigarrang kuchukchalarni hisobga olmaganda barcha genotipik guruhlar orasida digeterozigotalar necha foizni tashkil etadi?

A) 20 B) 40 C) 50 D) 25

18. Ikki juft allel bo'lmagan genlar otlar junining rangini nazorat qiladi. Genotipdagi dominant B geni qora rangli, b geni esa malla rangli jun hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. I geni esa B va b genlar funksiyasini pasaytirib, rangning kulrang tusda bo'lishiga olib keladi. Fermer xo'jaligida bir necha yil davomida digeterozigotali otlarni chatishtirish natijasida olingan nasl orasida necha foiz organizm kulrang tusda bo'lishi ehtimolini aniqlang.

A) 75 B) 50 C) 100 D) 25

19. Yaqindan ko'rish (miopiya) autosomada joylashgan dominant gen, rangni ajrata olmaslik (daltonizm) X xromasomada joylashgan retsessiv gen bilan ifodalanadi.

Normal ko'rish qobiliyatiga ega ota-onadan rangni ajrata oladigan qiz va bitta daltonik o'g'il tug'ilgan. Ko'rsatilgan farzandlar genotipini toping.

A) AaX^DX^d ; AaX^DY

B) aaX^DX^d ; aaX^DY

C) aaX^DX^D ; aaX^dY

D) $AA X^DX^D$; aaX^dY

20. Daltonizm jinsga birikkan holda retsessiv irsiylanadi, albinizm retsessiv autosoma kasalligi. I qon guruhi I^0I^0 va II qon guruhi I^AI^A , I^AI^0 holda ifodalanadi. I qon guruhli daltonizm va albinizm bo'yicha sog'lom gomozigotali ayol daltonik bo'lmagan va qolgan ikki belgi bo'yicha geterozigotali II qon guruhli yigitga turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlardan necha foizi I qon guruhli va ikkala belgi bo'yicha sog'lom bo'lish ehtimolini toping.

A) 25 B) 75 C) 50 D) 0

21. Arpa o'simligida xlorofill pigmentini sintezlashda ikkita ferment qatnashadi. Ularning bo'lmasligi pigment sintezining buzilishiga olib boradi. Har bir fermentning sintezi har xil autosomalarda joylashgan dominant (A va B) genlar bilan ifodalanadi. Birinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmasligi o'simliklarning oq rangda, ikkinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmasligi o'simliklarning sariq rangda bo'lishiga olib keladi. Ushbu genlarning birgalikda bo'lmasligi o'simlikning oq rangini, birgalikda bo'lishi yashil rangini ta'minlaydi. Bargi sariq rangli o'simliklarning genotipini toping.

1) AABb;2) aaBB;3) Aabb;4) AaBb;5) aabb;6) AABb; 7) aaBb;8) AaBB;9) AAbb

A) 2, 5, 7 B) 2, 3, 7, 9
C) 3, 9 D) 1, 4, 6, 8

22. Itning koker-spaniel zotining genotipidagi A va B genlari birgalikda junning qora rangda bo'lishini ta'minlaydi. Genotipda har ikkala gendan faqat bittasi uchrasa rang malla, dominant genlar bo'lmasa och sariq rangda bo'ladi. Tajribada gomozigota malla itlardan qora rangli avlod olingan. F1 dagi qora rangli it bilan faqat B geni bo'yicha gomozigota qora it chatishtirilsa, olingan avloddag qora kuchukchalarning genotipi qanday nisbatda bo'ladi?

A) 3:1 B) 1:1:1:1
C) 1:1:2:2 D) 3:3:1:1

23. Kanareykalarda patining yashil rangda bo'lishini belgilovchi B geni jinsiy X xromosomada joylashgan bo'lib, uning retsessiv alleli patning jigarrang bo'lishini ta'minlaydi. Kokilchasing bo'lishini autosoma C gen, bo'lmasligi c geni bilan ifodalanadi. Jigarrang, kokilchali erkak kanareyka

yashil, kokilsiz urg'ochi bilan chatishtirilganda, avlodlarda jigarrang, kokilsiz kanareykalar hosil bo'ldi. Avlodda urg'ochi kanareykalarning necha foizi yashil, kokilsiz bo'ladi?

A) 25 B) 0 C) 6,25 D) 12,5

24. Odamlarda qandli diabet va fenilketonuriya kasalliklari autosomada joylashgan retsessiv gen orqali yuzaga chiqadi. Qandli diabet bilan kasallangan erkak shu belgilari bo'yicha sog'lom ayol bilan turmush qurdi. Ularning oilasida tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlardan biri qandli diabet bilan, ikkinchisi esa fenilketonuriya bilan kasallangan. Fenilketonuriya bilan tug'ilgan farzandlarning necha foizi qandli diabet bilan kasallangan?

A) 50 B) 75 C) 12,5 D) 25

25. Qoramollarda shoxsizlik geni shoxlilik geni ustidan, qora rang geni qizil rang geni ustidan dominantlik qiladi. Agar ikkala belgi bo'yicha geterozigota buqa va sigirlar chatishtirilganda nazariy jihatdan 448 ta buzoq olinsa, ulardan qanchasi faqat birinchi belgi bo'yicha geterozigotali bo'ladi?

A) 224 B) 28 C) 84 D) 112

26. Qo'y ko'z, polidaktiliya bilan kasallangan ona va ko'k ko'z, besh barmoqli otadan ko'k ko'z, 5 barmoqli farzand tug'ildi (qo'y ko'zlik ko'k ko'zlik ustidan dominantlik qiladi, polidaktiliya dominant belgi hisoblanadi). Ota-ona genotipini aniqlang.

A) AABb×aabb
B) AABb×Aabb
C) aaBB×AaBb
D) AaBb×aabb

27. Itlarda jun rangining qora bo'lishi jigarrang ustidan, kalta bo'lishi uzun bo'lishi ustidan to'liq dominantlik qiladi. Har ikkala belgining rivojlanishini ta'minlovchi genlar boshqa-boshqa xromosomalarda joylashgan. Agar digeterozigotali qora va kalta junli itlar o'zaro chatishtirilganda keyingi avlodda olingan kuchukchalarning necha foizi qora va kalta junli bo'ladi?

A) 50;50 B) 75; 75 C) 60;40 D) 45;25

28. II qon guruhli, qo'yko'z, polidaktiliya bilan kasallangan ona va III qon guruhli, ko'kko'z, 5 barmoqli otadan I qon guruhli, ko'kko'z, 5 barmoqli farzand tug'ildi (qo'yko'zlik ko'kko'zlik ustidan, polidaktiliya 5barmoqlilik ustidan dominantlik qiladi). Ota-ona genotipini aniqlang.

A) $I^A I^O A A B B \times I^B I^O a a b b$ B) $I^A I^O A a B b \times I^B I^O A a B b$
C) $I^A I^O A a b b \times I^B I^O a a b b$ D) $I^A I^O A a B b \times I^B I^O a a b b$

29. Tovuqlarning ayrim zotlari kalta oyoqliligi bilan ajralib turadi. Oyoqlari kalta bo'lishi autosomaga birikkan holda irsiylanib, bir vaqtda tovuqlar tumshug'ining kalta bo'lishiga olib keladi. Bu belgi gomozigota holatda o'linga sababchi bo'ladi. Natijada bunday genotipli jo'jalar tuxumdan chiqqan olmay embrionlik bosqichida halok bo'ladi. Tovuqchilik fermasida genotipi noma'lum bo'lgan uzun oyoqli xo'roz va kalta oyoqli tovuqlar chatishtirilganda naslda o'lim kuzatilmagan. O'sha kalta oyoqli tovuq boshqa bir xo'roz bilan chatishtirilganda olingan naslda o'lim kuzatilgan va olingan nasl(tuxumdan ochib chiqqan jo'jalar) 17472tani tashkil qilgan. O'lgan jo'jalar soni, ularning genotipi va olingan nasl genotipini aniqlang.

A) 5824;aa; AA,Aa,Aa

B) 4368;aa; AA,Aa,Aa

C) 5824;AA; Aa,Aa,aa

D) 4368;AA; Aa,Aa,aa

30. Miopiya (A) kasalligi bilan kasallangan hamda chapaqay (b) erkak, o'naqay va sog'lom ayolga uylandi. Er-xotinlarning ikkalasining ham opa-ukalari fenilketonuriya bilan kasallangan, lekin o'zlari sog'lom edi. Ularning birinchi farzandlari uchchala belgi bo'yicha ham normal edi.

2-farzandi esa miopiya bilan kasallangan, chapaqay, 3-farzandi esa fenilketonuriya bilan kasallangan edi. Ota-ona genotipini aniqlang. Bu oilada sog'lom, o'naqay, normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan farzandning tug'ilish ehtimolligi qanday?

A) $A a B b \times A a B B$; 1/2;

B) $A a b b C c \times a a B b C c$; 6/16;

C) $A a b b C c \times a a B b C C$; 1/16;

D) $a a B b C c \times A a b b C c$; 3/16;

31. Qoramolda shoxsizlik shoxlilik ustidan dominantlik qiladi. Terining qora rangi, ola-bula rangga nisbatan ustunlik qiladi. Agar ikki belgisi bo'yicha geterozigotali ota-onalar charishtirilsa, hosil bo'lgan individlar orasida genotip jihatdan ota-onasiga o'xshashlari necha %ni tashkil qiladi? Necha qismi ola-bula rangga ega bo'ladi?

A) 50%; 2/16

B) 75%; $\frac{3}{4}$

C) 37,5%; $\frac{1}{4}$

D) 25%; 4/16

32. O'rmon yertutida mevasining qizil rangi va kosachabargining to'g'riligi chala dominantlik qiladi. Digeterozigotali organizmlar chatishtirilganda F_1 da fenotip bo'yicha ajralish nisbati va genotipik sinflar soni qanday bo'ladi?

A) 1:2:2:4:1:2:1:2:1; 9

B) 9:3:3:1; 9

C) 3:3:1:1; 4

D) 1:3:6:3:2:1; 9

33. O'simlik genotipi AABbcc ko'rinishda bo'lsa, genlar to'liq dominant, mustaqil taqsimlanishi ma'lum bo'lsa bu o'simlik necha xil gameta hosil qiladi, nechta fenotipik va genotipik gruppaga hosil bo'ladi? (agar o'z-o'zidan changlansa)

A) 2; 2; 3 B) 2; 3; 4;

C)2; 4; 4 D) 6; 27; 16;

34. III qon guruhli sog'lom ayol, II qon guruhli sog'lom erkakka turmushga chiqqan. Bu oilada I qon guruhli gemofilik o'g'il tug'ilgan bo'lsa: oiladagi qizlar orasida necha foizi tashuvchi?

A) 25% B) 50% C) 12,5% D) 0%

35. Xo'shbo'y no'xtida poyasining uzun bo'lishi(A) kaltaligi, dukkagini yashil (B) bo'lishi sariq rangi ustidan, donining silliqligi (C) burushgani ustidan dominantlik qiladi. Genotiplari AABbCc va aaBbcc bo'lgan o'simliklar chatishtirilganda fenotip bo'yicha qanday ajralish nisbati kuzatiladi. O'sha o'simliklar chatishtirilganda Trigeterozigotalar va uch juft belgisi bo'yicha gomozigotalarning nisbati qanday bo'ladi?

A) 3:2:1:1:1; 2/2

B) 3:3:1:1; 2/1

C) 3:3:1:1; 2/0

D) 5:2:1; 3/1

36. Xoldor to'tilarning pat rangi komplementar irsiylanishida oq, sariq, havorang va yashil ranglarda bo'ladi. Urg'ochi va erkak to'tilar o'zaro chatishtirilganda avlodda barcha rangdagi to'tilar olindi, ammo havorang to'tilar sariq rangdagi to'tiga bo'lgan nisbati 3:1 ga teng. Ota-ona formalar genotipini aniqlang.

A) AaBb $\times$ Aabb B) AaBb $\times$ AaBb

C) Aabb $\times$ aabb D) AaBb $\times$ aabb

37. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota qo'y ko'z, seppilli, taram-taram sochli erkak va ayol oilasida tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning genotipik sinflari soni to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

A)27 B)12 C)8 D)18

38. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota qo'y ko'z, seppilli, taram-taram sochli erkak va ayol oilasida tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning fenotipik sinflari soni to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

A)27 B)12 C)8 D)18

39. Odamda polidaktiliya va katarakta 1 ta autosomada joylashgan dominant genlar ta'sirida irsiylanadi. Erkak katarakta va polidaktiliya bilan kasallangan bo'lib, unga bu genlardan biri onasidan o'tgan. Ayol 2 belgisi bo'yicha sog'lom. Nazariy jihatdan krosingover 3 % bo'lsa, shu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan bolalarning necha % i ota-onaga fenotip jihatdan o'xshash bo'ladi.

A) 97% B) 50% C) 3% D) 48,5%

40. Qushlarga mansub hayvon X-xromasomaga birikkan retsesiv letal gen mavjud bo'lib, bu gen X^aX^a va X^aY genotipga ega organizmlarning embrionlik davri boshida nobud bo'lishiga olib keladi. Normal ota-onadan tug'ilishi mumkin bo'lgan avlodda erkak va urg'ochi jins nisbatini aniqlang.

- A) erkak 33,3 % urg'ochi; 66,7 % erkak yoki 50 % urg'ochi; 50 % erkak
- B) 50% urg'ochi; 50 % erkak yoki 75% urg'ochi; 25%
- C) 50 % urg'ochi; 50 % erkak yoki 66,7 % urg'ochi; 33,3 % erkak
- D) 25% urg'ochi; 75 % erkak yoki 50 % urg'ochi; 50 % erkak

41. Tovuqlarda erta pat hosil qilish va chipor rang kech pat hosil qilish va qora rangga nisbatan dominantlik qiladi. Bu belgilarni ifodalovchi noallel genlar autosomda birikkan holda irsiylanadi. Digeterozigota organizmlar chatishtirilganda kech pat hosil qiladigan chipor rang jo'jalar avlodning necha foizini tashkil qiladi? (Xo'roz dominant genlarni faqat otasidan olgan, krossingover 20%).

- A) 5% B) 12,5% C) 60% D) 70%

42. Odamda qo'y ko'zlik va o'naqaylik dominant. Erkak ko'kko'z va o'naqay (uning onasi chapaqay bo'lgan), ayol qo'yko'z va o'naqay bo'lgan turmushdan gomozigota ko'kko'z, o'naqay bola tug'ilishi ehtimolini toping. (Bu oilada oldin ko'kko'z chapaqay bola tug'ilgan).

- A) 25% B) 12,5%
C) 50% D) 37.5%

43. Oq gulli xushbo'y no'xot o'simliklari o'zaro chatishtirilganda F_1 da olingan o'simliklarning hammasi qizil gulli bo'ldi. F_2 da 1440 ta o'simlik olindi. Shundan nechtasi digomozigota oq gulli o'simlik?

- A) 270 B) 90 C) 810 D) 630

44. Gardishsimon mevali qovoq o'simligi bilan uzunchoq mevali qovoq o'simligi o'zaro chatishtirilganda 40 ta uzunchoq mevali qovoq olindi. Olingan o'simliklarning necha foizi yumoloq mevali qovoqlar hisoblanadi?

- A) 75 B) 50 C) 25 D) 0

45. Gardishsimon mevali qovoq o'simligi bilan uzunchoq mevali qovoq o'simligi o'zaro chatishtirilganda 40 ta uzunchoq mevali qovoq olindi. Olingan o'simliklarning nechatasi yumoloq mevali qovoqlar hisoblanadi?

- A) 160 B) 80 C) 40 D) 0

N-8 Genetika

1. Shaftoli mevasining tuklar bilan qoplanganligi (B) silliqiligi (b) ustidan, meva eti oq rangda (C) bo'lishi sariqligi (c) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada ikkala belgi bo'yicha geterozigotali o'simlik bilan tukli oq mevali o'simlik chatishtirilgan. Avlodda olingan 96 ta o'simlikdan 75% i ning mevasi tukli va rangi oq, 25% i ning mevasi tukli va rangi sariq bo'lgan. Olingan o'simliklardan nechtasi bitta belgi bo'yicha geterozigotali bo'ladi?

- A) 24 ta B) 72 ta C) 12 ta D) 48 ta

2. Shaftoli mevasining tuklar bilan qoplanganligi (B) silliqiligi (b) ustidan, meva eti oq rangda (C) bo'lishi sariqligi (c) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada ikkala belgi bo'yicha geterozigotali o'simlik bilan tukli oq mevali o'simlik chatishtirilgan. Avlodda olingan 96 ta o'simlikdan 75% i ning mevasi tukli va rangi oq, 25% i ning mevasi tukli va rangi sariq bo'lgan. Olingan osimliklardan nechitasi genotip bo'yicha djgeterozigotali bo ladi?

A) 24 ta B) 72 ta C) 12 ta D) 48 ta

3. Shaftoli mevasining tuklar bilan qoplanganligi (B) silliqiligi (b) ustidan, meva eti oq rangda (C) bo'lishi sariqligi (c) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada ikkala belgi bo'yicha geterozigotali o'simlik bilan tukli oq mevali o'simlik chatishtirilgan. Avlodda olingan 96 ta o'simlikdan 75% i ning mevasi tukli va rangi oq, 25% i ning mevasi tukli va rangi sariq bo'lgan. Olingan o simliklardan nechitasi ikkinchi belgi bo'yicha gomozigotali dominant bo'ladi?

A) 24 ta B) 72 ta C) 12 ta D) 48 ta

4. Shaftoli mevasining tuklar bilan qoplanganligi (B) silliqiligi (b) ustidan, meva eti oq rangda (C) bo'lishi sariqligi (c) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada ikkala belgi bo'yicha geterozigotali o'simlik bilan tukli oq mevali o'simlik chatishtirilgan. Avlodda olingan 96 ta o'simlikdan 75% i ning mevasi tukli va rangi oq, 25% i ning mevasi tukli va rangi sariq bo'lgan. Olingan o'simliklardan nechitasi gomozigotali dominant bo'ladi?

A) 24 ta B) 72 ta C) 12 ta D) 48 ta

5. Shaftoli mevasining tuklar bilan qoplanganligi (B) silliqiligi (b) ustidan, meva eti oq rangda (C) bo'lishi sariqligi (c) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada ikkala belgi bo'yicha geterozigotali o'simlik bilan tukli oq mevali o'simlik chatishtirilgan. Avlodda olingan 96 ta o'simlikdan 75% i ning mevasi tukli va rangi oq, 25% i ning mevasi tukli

va rangi sariq bo'lgan. Olingan o'simliklardan nechitasi birinchi belgi bo'yicha gomozigotali dominant bo'ladi?

A) 24 ta B) 72 ta C) 12 ta D) 48 ta

6. Odamlarda qoshning sertuk bo'lishi, yuqori qovoqning osilgan bo'lishi, burunning katta bo'lishi dominant belgi hisoblanadi. Agar qoshi sertuk, qovog'i normada, burni katta, genotip bo'yicha gomozigota erkak siyrak qoshli, qovog'i osilgan va burni kichik gomozigotali ayolga uylansa, ularning farzandlari orasida

uchchala belgi bo'yicha geterozigotali farzand tug'ilish ehtimoli necha foiz?

A) 25 % B) 0 % C) 75 % D) 100 %

7. Odamlarda qoshning sertuk bo'lishi, yuqori qovoqning osilgan bo'lishi, burunning katta bo'lishi dominant belgi hisoblanadi. Agar qoshi sertuk, qovog'i normada, burni katta, genotip bo'yicha gomozigota erkak siyrak qoshli, qovog'i osilgan va burni kichik gomozigotali ayolga uylansa, ularning farzandlari orasida retsessiv belgili farzand tug'ilish ehtimoli necha foiz?

A) 25 % B) 0 % C) 75 % D) 100 %

8. Odamlarda qoshning sertuk bo'lishi, yuqori qovoqning osilgan bo'lishi, burunning katta bo'lishi dominant belgi hisoblanadi. Agar qoshi sertuk, qovog'i normada, burni katta, genotip bo'yicha gomozigota erkak siyrak qoshli, qovog'i osilgan va burni kichik gomozigotali ayolga uylansa, ularning farzandlari orasida necha foizining qoshi sertuk, qovog'i osilgan va burni katta bo'ladi?

A) 25 % B) 0 % C) 75 % D) 100 %

9. Odamlarda qoshning sertuk bo'lishi, yuqori qovoqning osilgan bo'lishi, burunning katta bo'lishi dominant belgi hisoblanadi. Agar qoshi sertuk, qovog'i normada, burni

katta, genotip bo'yicha gomozigota erkak siyrak qoshli, qovog'i osilgan va burni kichik gomozigotali ayolga uylansa, ularning farzandlari orasida necha foizining qoshi siyrak, qovog'i osilgan va burni kichik bo'ladi?

A) 25 % B) 0 % C) 75 % D) 100 %

10. Odamlarda kichik jag' tishlarining bo'Imasligi dominant belgi sifatida nasldan-naslga o'tadi. Ona shu belgi bo'yicha sog'lom, ota esa geterozigotali bo'lgan oilada farzandlarning shu anomaliya bo'yicha tug'ilish ehtimoli qanday bo'ladi?

A) 50 % sog'lom; 50 % kasal
B) 25 % sog'lom; 75 % kasal
C) 75 % sog'lom; 25 % kasal
D) 100 % sog'lom

11. Odamlarda kichik jag' tishlarining bo'Imasligi dominant belgi sifatida nasldan-naslga o'tadi. Ona shu belgi bo'yicha sog'lom, ota esa geterozigotali bo'lgan oilada farzandlarning necha foizi genotip jihatdan ona organizmiga o'xshash bo'ladi?

A) 50 B) 25 C) 75 D) 100

12. Qorako'l qo'ylarning uzunquloqli bo'lishi to'liqsiz dominant holda nasldan naslga o'tadi. Tajribada geterozigotali organizmlar bir necha marta chatishtirilib, 28 ta nasl olindi. Olingan qo'zichoqlarning 25% i kalta quloqli bo'lgan. Avlodlardan nechtasining quloq uzunligi o'rtacha bo'lishini aniqlang.

A) 14 B) 7 C) 28 D) 21

13. Qorako'l qo'ylarning uzunquloqli bo'lishi to'liqsiz dominant holda nasldan naslga o'tadi. Tajribada geterozigotali organizmlar bir necha marta chatishtirilib, 28 ta nasl olindi. Olingan qo'zichoqlarning 25% i kalta quloqli bo'lgan. Avloddagi uzun quloqli qo'ylar sonini va foizini aniqlang.

A) 7 ta; 25 B) 14 ta; 50
C) 28 ta; 100 D) 21 ta; 75

14. Albinizm kasalligi retsessiv autosoma kasalligi, daltonizm retsessiv jinsga birikkan holda irsiylanadi. I qon guruhi $I^0 I^0$ va II qon guruhi $I^A I^A$, $I^A I^0$ holda ifodalanadi. I qon guruhli daltonizm va albinizm bo'yicha sog'lom gomozigotali ayol daltonik bo'Imagan va qolgan ikki belgi bo'yicha geterozigotali II qon guruhli yigitga turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlar necha foizining qon guruhi I va II bo'lishi ehtimolini mos ravishda toping.

A) 50, 50 B) 50, 25 C) 25, 50 D) 0, 100

15. Albinizm kasalligi retsessiv autosoma kasalligi, daltonizm retsessiv jinsga birikkan holda irsiylanadi. I qon guruhi $I^0 I^0$ va II qon guruhi $I^A I^A$, $I^A I^0$ holda ifodalanadi.

I qon guruhli daltonizm va albinizm bo'yicha sog'lom gomozigotali ayol daltonik bo'Imagan va qolgan ikki belgi bo'yicha geterozigotali II qon guruhli yigitga turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug'ilgan qiz bolalardan necha foizi II qon guruhli hamda daltonizm va albinizm bo'yicha kasal bo'lish ehtimolini toping.

A) 0 B) 25 C) 75 D) 50

16. Albinizm kasalligi retsessiv autosoma kasalligi, daltonizm retsessiv jinsga birikkan holda irsiylanadi. I qon guruhi $I^0 I^0$ va II qon guruhi $I^A I^A$, $I^A I^0$ holda ifodalanadi. I qon guruhli daltonizm va albinizm bo'yicha sog'lom gomozigotali ayol daltonik bo'Imagan va qolgan ikki belgi bo'yicha geterozigotali II qon guruhli yigitga turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug'ilgan o'g'il bolalardan necha foizi I qon guruhli va ikkala belgi bo'yicha sog'lom bo'lish ehtimolini toping.

A) 0 B) 25 C) 75 D) 50

17. Albinizm kasalligi retsessiv autosoma kasalligi, daltonizm retsessiv jinsga birikkan holda irsiylanadi. I qon guruhi I⁰ I⁰ va II qon guruhi I^A I^A, I^A I⁰ holda ifodalanadi. I qon guruhli daltonizm va albinizm bo'yicha sog'lom gomozigotali ayol daltonik bo'lmagan va qolgan ikki belgi bo'yicha geterozigotali II qon guruhli yigitga turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlardan necha foizi 1 qon guruhli va ikkala belgi bo'yicha kasal bo'lish ehtimolini toping.

A) 0 B) 25 C) 75 D) 50

18. Ko'zi ko'k (a), chapaqay (b) erkak ko'zi qo'ng'irrang o'naqay ayol bilan turmush qurdi. Oilada tug'ilgan 4 farzanddan bittasi otasiga o'xshash bo'lsa, ota-ona genotipini aniqlang.

A) aabb x AaBb B) aaBb x AaBb
C) Aabb x AaBB D) AaBb x AaBB



19. Kartoshka tugunagining ko'k-binafsha rangini dominant F geni, pushti rangini dominant G geni namoyon qiladi. Lekin bu genlarning faoliyati dominant H geni bo'lmasa yuzaga chiqmaydi. Genotipda F va G genlari dominant H geni bilan uchrashganda tugunak qizil-binafsha rang bo'ladi, boshqa holatlarda tugunak oq rangda bo'ladi. Quyidagi chatishtirishlarning qaysi birida genotip bo'yicha nisbat 1:1:1:1:1:1:1:1

A) FfGgHh x ffgghh B) FfGgHH x FfGGHH
C) ffggHH x FFGGhh D) ffgghh x FFGghh

20. Kartoshka tugunagining ko'k-binafsha rangini dominant F geni, pushti rangini dominant G geni namoyon qiladi. Lekin bu genlarning faoliyati dominant H geni bo'lmasa yuzaga chiqmaydi. Genotipda F va G genlari dominant H geni bilan uchrashganda tugunak qizil-binafsha rang bo'ladi, boshqa holatlarda tugunak oq rangda bo'ladi. Tugunagi oq gomozigotali kartoshka qizil-binafsha rangli gomozigota kartoshka bilan chatishtirilgan. Olingan avlodning necha

foizi fenotip bo'yicha qizil-binafsha rangli bo'ladi?

A) 25 B) 100 C) 75 D) 50

21. Odamlarda sariq va tekis soch retsessiv belgi hisoblanadi. Sochi sariq va to'lqinsimon bo'lgan ayol sochi qora va to'lqinsimon bo'lgan erkakka turmushga chiqqan. Bu oila farzandlarining necha foizi qora va jingalak sochli bo'lishi ehtimolini aniqlang.

A) 37,5 B) 50 C) 12,5 D) 75

22. Odamlarda sariq va tekis soch retsessiv belgi hisoblanadi. Sochi sariq va to'lqinsimon bo'lgan ayol sochi qora va to'lqinsimon bo'lgan erkakka turmushga chiqqan. Bu oilada tug'ilish ehtimoli bo'lgan farzandlarning necha foizi birinchi belgi bo'yicha geterozigotali bo'lishini aniqlang.

A) 37,5 B) 50 C) 12,5 D) 75

23. Odamlarda terisining rangi ikki xil gen bilan belgilanadi. AABB genotipli odamlarning terisi qora, aabb genotipli odamlarniki oq bo'ladi. Genotipda uchta dominant gen bo'lsa qoramtir, 2 ta bo'lsa oraliq, 1 ta bo'lsa oqish bo'ladi. Terisi oraliq rangdagi digeterozigota ayol va erkak turmushidan terisi oraliq rangli farzandlar tug'ilish ehtimoli necha foiz bo'ladi?

A) 37,5 B) 66,7 C) 25 D) 6,25

24. Odamlarda terisining rangi ikki xil gen bilan belgilanadi. AABB genotipli odamlarning terisi qora, aabb genotipli odamlarniki oq bo'ladi. Genotipda uchta dominant gen bo'lsa qoramtir, 2 ta bo'lsa oraliq, 1 ta bo'lsa oqish bo'ladi. Terisi oraliq rangdagi digeterozigota ayol va erkak turmushidan tug'ilishi mumkin bo'lgan terisi oraliq rangli farzandlarning necha foizi genotip jihatdan ota-onaga o'xshash bo'ladi?

A) 37,5 B) 66,7 C) 25 D) 6,25

25. Odamlarda terisining rangi ikki xil gen bilan belgilanadi. AABB genotipli odamlarning terisi qora, aabb genotipli odamlarniki oq bo'ladi. Genotipda uchta dominant gen bo'lsa qoramtir, 2 ta bo'lsa oraliq, 1 ta bo'lsa oqish bo'ladi. Terisi oraliq rangdagi digeterozigota ayol va erkak turmushidan terisi qoramtir rangli farzandlar tug'ilish ehtimoli necha foiz bo'ladi?

A) 37,5 B) 66,7 C) 25 D) 6,25

26. Odamlarda terisining rangi ikki xil gen bilan belgilanadi. AABB genotipli odamlarning terisi qora, aabb genotipli odamlarniki oq bo'ladi. Genotipda uchta dominant gen bo'lsa qoramtir, 2 ta bo'lsa oraliq, 1 ta bo'lsa oqish bo'ladi. Terisi oraliq rangdagi digeterozigota ayol va erkak turmushidan turmushidan terisi oq rangli farzandlar tug'ilish ehtimoli necha foiz bo'ladi?

A) 37,5 B) 66,7 C) 25 D) 6,25

27. Otlar junining rangini ikkita allel bo'lmagan genlar nazorat qiladi. Genotipdagi dominant B geni qora rangli, b geni esa malla rangli jun hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. I geni esa B va b genlar funksiyasini pasaytirib, rangning kulrang tusda bo'lishiga olib keladi. Fermer xo'jaligida bir necha yil davomida digeterozigotali otlarni chatishtirish natijasida olingan nasl orasida necha foiz organizm kulrang tusda bo'lishi ehtimolini aniqlang.

A) 75 B) 50 C) 25 D) 100

28. Otlar junining rangini ikkita allel bo'lmagan genlar nazorat qiladi. Genotipdagi dominant B geni qora rangli, b geni esa malla rangli jun hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. I geni esa B va b genlar funksiyasini pasaytirib, rangning kulrang tusda bo'lishiga olib keladi. Fermer xo'jaligida bir necha yil davomida digeterozigotali otlarni chatishtirish natijasida olingan nasl orasida fenotip bo'yicha nisbat qanday bo'lishini aniqlang.

A) 12:3:1 B) 9:6:1 C) 9:3:3:1 D) 15:1

29. Otlar junining rangini ikkita allel bo'lmagan genlar nazorat qiladi. Genotipdagi dominant B geni qora rangli, b geni esa malla rangli jun hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. I geni esa B va b genlar funksiyasini pasaytirib, rangning kulrang tusda bo'lishiga olib keladi. Fermer xo'jaligida bir necha yil davomida digeterozigotali otlarni chatishtirish natijasida olingan nasl orasida fenotip bo'yicha ota-onaga o'xshamagan organizmlar necha foizni tashkil qiladi?

A) 75 B) 50 C) 25 D) 100

30. Piyoz po'stining qizil rangini B gen, sariq rangini b gen ifodalaydi, ammo ranglar genotipda V gen bo'lsa yuzaga chiqadi. Uning retsessiv v alleli ingibitor vazifasini bajaradi va rangning chiqishiga to'sqinlik qiladi. Po'sti qizil piyoz, oq piyoz bilan chatishtirilganda avlodda qizil va sariq piyozlar o'zaro teng miqdorda olingan bo'lsa, avlodda kutiladigan oq piyozlarning % dagi miqdorini ko'rsating.

A) 50% B) 25% C) 75% D) 37,5%

31. Kartoshka tugunagida antotsion rang bo'lishi asosiy P va R genlarga bog'liq. Lekin ular o'z ta'sirini dominant D gen bo'lgandagina fenotipda namoyon qiladi. Shunga ko'ra, P-rrD- genotipli kartoshka tugunagi ko'k-binafsharang, P-R-D-genotipli tugunagi qizil-binafsharang, ppR-D-genotipli tugunagi pushti rangda boiadi. Boshqa holatlarda tugunak oq rangda boiadi. Kartoshkaning geterozigota qizil-binafsha tugunakli navi gomozigota oq rangli tugunak hosil qiluvchi pprdd genotipli o'simlik bilan chatishtirilganda F₂ da 152 ta o'simlik hosil bo'ldi. Ulardan nechitasi oq tugunakli bo'lgan?

A) 8 B) 19 C) 95 D) 152



32. G'o'zada poyasining uzun bo'lishi kalta poya ustidan to'liq dominantlik qiladi, tolaning malla rangi oq rangi ustidan chala dominantlik qiladi, tolaning novvot rangda bo'lishi oraliq xarakterga ega. Digeterozigota g'o'zalar o'zaro chatishtirilganda avlodda 640 ta o'simlik olingan bo'lsa, uzun poyali g'o'zalarning necha xil genotipik guruhlar mavjud?

A) 1 B) 9 C) 6 D) 3

33. Bada o'simligida gulining yashil rangda bo'lishini dominant A va B genlari belgilaydi. A-bb holatda gul qizil, aa-B holatda gul sariq, ikkala gen retsessiv bo'lganda gul oq rangda bo'ladi. Digeterozigota yashil o'simlik geterozigota qizil gulli o'simlik bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizi yashil gulli bo'ladi?

A) 25 B) 37,5 C) 50 D) 6,25

34. Makkajo'xori maysalarining sariq va yaltiroq bo'lishi yashil va xira bo'lishiga nisbatan retsessiv belgidir. Bu genlar birikkan holda irsiylanadi. Genlari bo'yicha digeterozigota bo'lgan o'simlikdan tahliliy chatishtirish natijasida olingan 726 ta o'simlikdan 128 tasi krossingover formalar ekanligi aniqlandi. Hosil bo'lgan o'simliklardan nechtasining maysasi yashil rangga ega bo'ladi?

A) 598 B) 363 C) 128 D) 299

35. Drozofila pashshasida qanot shakli va tana rangini ifoda etuvchi genlar bitta xromosomada joylashgan. Erkak va urg'ochi drozofila pashshalariga A va B genlari faqat otasidan o'tgan. Digeterozigota kulrang tanali, normal qanotli urg'ochi va erkak drozofila pashshalari o'zaro chatishtirildi. Avlodda allel genlarning o'rin almashishi natijasida krossingover foizi 17% ni tashkil etdi. Avlodning necha foizini kulrang tanali, kalta qanotli va qora tanali, normal qanotli pashshalar tashkil etadi?

A) 17 B) 4,25 C) 12,25 D) 8,5

36. Kumush rang chipor patli tovuqni oltin rang chipor patli xo'roz bilan chatishtirib 50 ta jo'ja olingan.

Ulardan nechtasi tovuq (a) va F_1 da necha xil genotip (b) hosil bo'lgan?

A) a-25 ta; b-2 xil B) a-25 ta; b-4 xil
C) a-50 ta; b-4 xil D) a-50 ta; b-2 xil

37. Odamlarda qandli diabet va fenilketonuriya kasalliklari retsessiv autosoma tipda irsiylanadi. Qandli diabet bilan kasallangan erkak, shu belgilari bo'yicha sog'lom ayol bilan turmush qurdi. Ularning oilasida tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlardan biri qandli diabet bilan, ikkinchisi esa birinchi belgi bo'yicha sog'lom, ikkinchi belgi bo'yicha fenilketonuriya bilan kasallangan. Tug'ilgan farzandlardan diabet bilan kasallanganlarining shu belgi bo'yicha sog'lom farzandlarga nisbatini aniqlang.

A) 3:1 B) 4:1 C) 2:1 D) 1:1

38. Otasi shapko'r (geterozigota), onasi polidaktiliya bilan kasallangan sog' qiz otasi shapko'r va polidaktiliya bilan kasallangan, onasi sog' yigitga turmushga chiqdi. Yigit shapko'rlik bilan, uning ukasi polidaktiliya bilan kasallangan. Yigit va qizning genotipini toping.

A) AaBb x aabb B) aaBb x Aabb
C) aabb x Aabb D) AABb x aabb

39. Drozofila pashshasida tananing kulrang bo'lishi qora rang ustidan, qanotining uzun bo'lishi kataligi ustidan dominantlik qiladi. Bu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar bitta xromosomada joylashgan. Qora tanali, kalta qanotli urg'ochi pashsha, digeterozigota kulrang tanali, uzun qanotli erkak pashsha bilan chatishtirildi. Avlodlarning necha foizi ota-onaga fenotip jihatdan o'xshash bo'lmagan?

A) 41,5 B) 25 C) 17 D) 0



40. Gipertrikoz - Y xromosomaga bog'liq holda irsiylanadigan kasallik bo'lib, bunda bola tanasi jun bilan qoplangan holda tug'iladi. Ota-onadan mazkur kasallik bilan kasallangan daltonik bola tug'ildi. Ota-onadan biri bu kasalliklardan faqat bittasi bilan og'rigan, ikkinchisi esa har ikkala kasallik bo'yicha sog'lom. Nazariy jihatdan bunday genotipli ota-onadan faqat daltonizm kasalligiga chalingan farzandlarning tug'ilish ehtimolligi necha foiz?

A. 25 B. 18.75 C. 37.5 D. 0

41. Polidaktiliya va katarakta bitta autosoma xromosomada joylashgan. Erkak ikkala belgi bo'yicha kasallangan va bu belgilarni onasidan olgan. Ayol ikkala belgi bo'yicha sog'lom. Agar krossingover 3% bo'lsa, ikkala belgi bo'yicha sog'lom farzandlarni tug'ilish ehtimolini aniqlang.

A) 97 B) 48,5 C) 50 D) 3

42. Qalampirning qizil rangda bo'lishi R va C genlariga bog'liq. Genotipda bu genlarning bo'lmasligi yashil, birinchi dominant genning bo'lishi qo'ng'ir, ikkinchi dominant genning bo'lishi esa sariq rangni namoyon qiladi. Qo'ng'ir va sariq qalampirilar o'zaro chatshtirilganda avlodda barcha rangdagi qalampirilar hosil bo'ldi. Avlodagi fenotipik guruh sonini toping.

A) 9 B) 4 C) 3 D) 2

43. AaBbCC genotipli organizmda birinchi juft allel gen oraliq irsiylanadi. Shunday genotipli organizmlar o'zaro chatshtirilganda fenotipik (a), genotipik (b) sinflar soni va gameta sonini (c) aniqlang.

A) a-9; b-9; c-4 B) a-6; b-9; c-4
C) a-4; b-9; c-4 D) a-12; b-9; c-4

44. AaBbCc genotipli organizmda birinchi juft allel gen oraliq irsiylanadi. Shunday genotipli organizmlar o'zaro chatshtirilganda fenotipik (a), genotipik (b) sinflar soni aniqlang.

A) a-9; b-27 B) a-12; b-27
C) a-8; b-27 D) a-4; b-9

45. AaBbCc genotipli organizmda birinchi juft allel gen va ikkinchi juft allel genlar oraliq irsiylanadi. Shunday genotipli organizmlar o'zaro chatshtirilganda fenotipik (a), genotipik (b) sinflar sonini aniqlang.

A) a-18; b-27 B) a-9; b-27
C) a-27; b-27 D) a-12; b-27

46. AaBbCC genotipli organizmda birinchi juft allel gen va ikkinchi juft allel genlar oraliq irsiylanadi. Shunday genotipli organizmlar o'zaro chatshtirilganda fenotipik (a), genotipik (b) sinflar sonini (c) aniqlang.


A) a-9; b-9 B) a-12; b-27
C) a-18; b-9 D) a-4; b-9

47. AaBbCc genotipli organizmda barcha juft allel gen oraliq irsiylanadi. Shunday genotipli organizmlar o'zaro chatshtirilganda fenotipik (a), genotipik (b) sinflar sonini aniqlang.

A) a-27; b-27 B) a-12; b-27
C) a-18; b-27 D) a-9; b-27

48. AaBBCC genotipli organizmda barcha juft allel gen oraliq irsiylanadi. Shunday genotipli organizmlar o'zaro chatshtirilganda fenotipik (a), genotipik (b) sinflar sonini aniqlang.

A) a-27; b-9 B) a-12; b-27
C) a-18; b-9 D) a-9; b-9



49. Drozofila meva pashshasining kulrang tanali uzun qanotli qizil ko'zli geterozigota urg'ochisi xuddi shunday fenotipga ega bo'lgan erkak pashsha bilan chatshtirildi. Hosil bo'lgan erkak pashshalarning necha foizi oq ko'zli bo'ladi?

A) 50 B) 25 C) 41,5 D) 70,75

50. Drozofila meva pashshasining kulrang tanali uzun qanotli qizil ko'zli geterozigota urg'ochisi xuddi shunday fenotipga ega bo'lgan erkak pashsha bilan chatshtirildi. Hosil bo'lgan erkak pashshalarning necha foizi qizil ko'zli uzun qanotli bo'ladi?

A) 37,5 B) 41,5 C) 50 D) 45,75

N-9 Genetika

1. Tovuqlarda patlarning erta hosil bo'lishi patlarning kech hosil bo'lishi ustidan, patlarning chipor rangi qora rangi ustidan dominantlik qiladi. Bu genlar bitta autasoma xromasomada joylashgan bo'lib, krasingover 20 % ni tashkil qiladi. Digeterozigota (otasi gomozigota, erta pat hosil qilgan, chipor rangli) xo'roz va xuddi shunday tovuq chatshtirilsa, avlodning foizi kech pat hosil qiluvchi chipor rangli bo'ladi? Urg'ochilarda krasingover kuzatilmaydi.

A) 40 B) 5 C) 25 D) 20

2. Tovuqlarning kalta oyoqli zoti polizlarni titkilab tashlamaydi, lekin bu belgi tovuq tumshug'ining qisqarishiga ham sabab bo'ladi. Natijada dominant gomozigotali jo'jalar tuxumini yorib chiqolmay halok bo'ladi. Faqat kalta oyoqli tovuq yetishtiruvchi

inkubatorida 3000 ta jo'ja tuxumdan yorib chiqdi. Jo'jalarning nechtasi halok bo'ladi.

A) 1000 B) 2000 C) 750 D) 1500

3. Xoldor to'tilarning pat rangi komplementar irsiylanishda oq, sariq, havorang va yashil ranglarda bo'ladi. Urg'ochi va erkak to'tilar o'zaro chatshtirilganda avlodda barcha rangdagi to'tilar olindi, ammo sariq rangli to'tilarning havorangdagi to'tiga bo'lgan nisbati 3:1 ga teng. Ota-ona formalarining fenotipini aniqlang.

A) yashil va sariq B) yashil va oq

C) yashil va havorang D) barchasi yashil

4. Birinchi qon guruhi - I^0I^0 , ikkinchi qon guruhi - I^AI^A yoki I^AI^0 , uchinchi qon guruhi I^BI^B yoki I^BI^0 , to'rtinchi qon guruhi I^AI^B . Geterozigota III qon guruhiga ega ayol I qon guruhli erkakka turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning qonida qanday modda(lar) bo'lmaydi?

a) agglyutinogen B b) agglyutinogen A c) agglyutinin α d) agglyutinin β

A) a,c B) b C) a,b D) b,d

5. Tovuqlarda patlarning erta hosil bo'lishi patlarning kech hosil bo'lishi ustidan, patlarning chipor rangi qora rangi ustidan dominantlik qiladi. Bu genlar bitta autasoma xromasomada joylashgan bo'lib, krasingover 20 % ni tashkil qiladi. Digeterozigota (otasi gomozigota, erta pat hosil qilgan, chipor rangli) xo'roz va xuddi shunday tovuq chatshtirilsa, avlodning necha foizi fenotip jihatdan ota-onasidan farq qiladi? Urg'ochilarda krasingover kuzatilmaydi.

A) 30 B) 40 C) 25 D) 70



6. Qoramollarning shortgorn zotida terisi rangining irsiylanishi oraliq xarakterga ega. R-qizil, r-oq, geterozigotalar ola rangga ega. Shoxsizlik (P) esa shoxlilik (p) ustidan to'liq dominantlik qiladi.

Digeterozigota buqa va sigirlar avlodida genotip bo'yicha qanday nisbat kuzatiladi.

- A) 3:6:3:1:2:1 B) 3:3:1:1 C) 9:3:3:1
D) 1:2:2:4:1:2:2:1

7. Tovuq oyog'i patning bo'lishi ikki juft polimer nokumulyativ dominant genlarga bog'liq. Agar genotipda ulardan bittasi bo'lsa ham tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi. Polimer genlar retsessiv holatda bo'lsa, pat rivojlanmaydi. Oyog'ida pati bor tovuq oyog'ida pati yo'q xo'roz bilan chatishtirilganda F_1 da 120 ta digeterozigota parranda F_2 da 1120 ta parranda olingan, F_2 avlodidagi parrandalardan nechtasining oyog'ida pati yo'q.

- A) 1120 B) 120 C) 70 D) 1050

8. Karp baliqlarining bir turida tangachalar butun tanasi bo'ylab bir xil joylashadi, ikkinchi turida tangachalari bir necha qator tasma shaklida joylashadi. Tajribada tangachasi bir xil joylashgan karplar chatishtirilishidan olingan 4500 ta avlodidagi baliqlarning 3000 tasi tangachasi bir xil, 1500 tasida tasmaimon joylashganligi, shuningdek, naslning 25 foizi embrionlik davrida nobud bo'lganligi aniqlandi. Agar birinchi avlodda olingan har xil fenotipli baliqlar o'zaro chatishtirilsa, naslning necha foizining genotipi dominant gomozigota holatda bo'ladi?

- A) 25 B) 0 C) 75 D) 50

9. Braxidaktiliya kasalligining barmoqlar qisqarishidan tortib ko'proq qisqarishigacha bo'lgan shakllari bor. Barmoqlari qisqa odam geterozigota genotipga ega. Ushbu mutatsiga uchragan odamlar shajarasini o'rganish

tufayli bu belgi fenotipda asosiy va modifikator genlar ishtirokida namoyon bo'lishi aniqlandi. Modifikator retsessiv genlar (n) gomozigota holatda bo'lsa, barmoqlar keskin qisqarishiga olib keladi. Modifikator genlarning dominant alleli (N) gomozigota holatda barmoqlarning kamroq qisqarishiga olib keladi, geterozigota esa o'rtacha qisqarishiga sababchi bo'ladi. Shunga ko'ra barmoqlari keskin braxidaktiliyaga uchragan ayol va retsessiv digomozigota erkak nikohidan sog'lom farzandlarning tug'ilishi ehtimoli (%) qanday?

- A) 12,5 B) 100 C) 50 D) 25

10. Birinchi qon guruhi - I^{p^0} , ikkinchi qon guruhi - I^{A^A} yoki I^{A^p} , uchinchi qon guruhi I^{B^B} yoki I^{B^p} , to'rtinchi qon guruhi I^{A^B} . Geterozigota II qon guruhiga ega ayol va gomozigota III guruhli erkakka turmushga chiqdi. Ushbu oilada qanday qon guruhiga ega farzandlar tug'ilishi mumkin.

- A) II, IV B) I, II, III, IV C) I, II D) IV, III

11. Odamlarda A va B genlari bitta autosoma xromasomasida joylashgan bo'lib, ikki xil kasallikni yuzaga chiqaradi. Ayol ikkala kasallik bilan kasallangan bo'lib, unga bu genlardan biri onasidan, ikkinchisi otasidan o'tgan. Erkak ikki belgi bo'yicha sog'lom. Agar nazariy jihatdan krasingover 3 % ni tashkil qilsa, shu oilada B geni bo'yicha kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

- A) 48,5 B) 50 C) 97 D) 47

12. Braxidaktiliya kasalligining barmoqlar qisqarishidan tortib ko'proq qisqarishigacha bo'lgan shakllari bor. Barmoqlari qisqa odam geterozigota genotipga ega. Ushbu mutatsiga uchragan odamlar shajarasini o'rganish tufayli bu belgi fenotipda asosiy va modifikator genlar ishtirokida namoyon bo'lishi aniqlandi. Modifikator

retsessiv genlar (n) gomozigota holatda bo'lsa, barmoqlar keskin qisqarishiga olib keladi. Modifikator genlarning dominant alleli (N) gomozigota holatda barmoqlarning kamroq qisqarishiga olib keladi, geterozigota esa o'rtacha qisqarishiga sababchi bo'ladi. Shunga ko'ra barmoqlari keskin braxidaktiliyaga uchragan kasalning genotipini aniqlang.

A) Bbnn B) bbNn C) bbNN D) BbNn

13. AaBb genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilganda olingan organizmlarning necha foizi o'ziga o'xshagan genotipli organizm bilan chatishtirilsa, avlodda genotip bo'yicha 1:2:1 nisbatda ajralish beradi? Ularning genotiplarini aniqlang.

1) AABB; 2) AaBB; 3) AABb; 4) AaBb; 5) AAbb;
6) Aabb; 7) aaBB; 8) aaBb; 9) aabb

A) 43,75%; 2,4,5,6,7,8 B) 50%; 2,3,6,8;

C) 37,5%; 2,3,4,6,8; D) 25%; 1,5,7,9

14. Qushlarga mansub hayvon X-xromasomaga birikkan retsesiv letal gen mavjud bo'lib, bu gen X^aX^a va X^aY genotipga ega organizmlarning embrionlik davri boshida nobud bo'lishiga olib keladi. Normal ota-onadan tug'ilishi mumkin bo'lgan avlodda erkak va urg'ochi jins nisbatini aniqlang.

A) 33,3 % urg'ochi; 66,7 % erkak yoki 50 % urg'ochi; 50 % erkak

B) 50% urg'ochi; 50 % erkak yoki 75% urg'ochi; 25% erkak

C) 50 % urg'ochi; 50 % erkak yoki 66,7 % urg'ochi; 33,3 % erkak

D) 25% urg'ochi; 75 % erkak yoki 50 % urg'ochi; 50 % erkak

15. Odamlarda qon guruhleri quyidagi genotipga ega: Birinchi qon guruhi - I^0I^0 , ikkinchi qon guruhi - I^AI^A yoki I^AI^0 , uchinchi qon guruhi I^BI^B yoki I^BI^0 , to'rtinchi qon guruhi I^AI^B . Ammo retsessiv ingibitor genning qon guruhlariga ta'sir etib, uning retsessiv alleli gomozigota holatda barcha genotiplarda I qon guruhini namoyon qiladi va Bombay fenomenini keltirib chiqaradi. Dominant alleli qon guruhlariga ta'sir ko'rsatmaydi. Digeterozigota II va III qon guruhli otalardan tug'ilgan farzandlarning necha foizini II qon guruhli farzandlar tashkil etadi.

A) 18,75 B) 43,75 C) 25 D) 37,5

16. Bulg'or qalampirida ($R_C_$) genlarining birga bo'lishi mevasining qizil bo'lishini ta'minlaydi, ularning retsessiv allelari esa mevasining yashil rangini belgilaydi. Genotipda faqat birinchi juft allel gen dominant holda bo'lishi mevasining qo'ng'irligini, faqat ikkinchi juft allel gen dominant holda bo'lishi esa meaning sariq rangini namoyon qiladi. Geterozigota sariq va qo'ng'ir rangli o'simliklar chatishtirilganda avlodda olingan o'simliklarning genotipini aniqlang.

A) RrCc; rrCc; RRcc; rrcc

B) RrCc; rrcc; RrCC; rrCc

C) RrCc; rrCc; Rrcc; rrcc

D) RrCC; RrCc; Rrcc; rrcc

17. Odamda teri pigmentining hosil bo'lishida qatnashadigan tirozinaza fermenti ishlab chiqarilmasa, albinizm kasalligi yuzaga keladi. Ota genotipida bu genlarning ikkalasi dominant holatda, ona genotipida faqat bittasi dominant holatda bo'lsa, bu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning necha foizi fenotip jihatdan otasiga o'xshash bo'ladi?

A) 0 B) 25 C) 75 D) 100

18. aaBbCCDdEe va AaBbCcDDee genotipli organizmlar nechtdan gameta hosil qiladi va ikkalasi uchun umumiy bo'lgan gameta(lar)ni ko'rsating.

- A) 8 tadan; AbCDe
B) 8 tadan abCDe va aBCDe
C) 16 tadan; aBCDe va abCde
D) 16 tadan; abCDe va aBCDe

19. AaBb genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilganda olingan organizmlarning necha foizi o'ziga o'xshagan genotipli organizm bilan chatishtirilsa, avlodda genotip bo'yicha ajralish yuz bermaydi.

- A) 75 B) 12,5 C) 25 D) 50

20. Sutemizuvchilarga mansub hayvon X-xromasomaga birikkan retsessiv letal gen mavjud bo'lib, bu gen X^aX^a va X^aY genotipga ega organizmlarning embrionlik davri boshida nobud bo'lishiga olib keladi. X^AX^a va X^AY genotipli ota-onadan tug'ilishi mumkin bo'lgan avlodda erkak va urg'ochi jins nisbatini aniqlang.

- A) erkak organizmlarning urg'ochi organizmlarga nisbati 2:1
B) urg'ochi organizmlarning erkak organizmlarga nisbati 2:1
C) erkak organizmlarning urg'ochi organizmlarga nisbati 3:1
D) urg'ochi organizmlarning erkak organizmlarga nisbati 3:1

21. Braxidaktiliya kasalligining barmoqlar qisqarishidan tortib ko'proq qisqarishigacha bo'lgan shakllari bor. Barmoqlari qisqa odam geterozigota genotipga ega. Ushbu mutatsiga uchragan odamlar shajarasini o'rganish tufayli bu belgi fenotipda asosiy va modifikator genlar ishtirokida namoyon bo'lishi aniqlandi. Modifikator retsessiv genlar (n) gomozigota holatda bo'lsa, barmoqlar keskin qisqarishiga olib keladi. Modifikator genlarning dominant alleli (N) gomozigota holatda barmoqlarning kamroq qisqarishiga olib keladi, geterozigota esa o'rtacha qisqarishiga sababchi bo'ladi. Shunga ko'ra barmoqlari braxidaktiliyaga uchragan odamlarning genotiplarini aniqlang. 1) Bbnn 2) BbNn 3) BbNN 4) bbnn 5) bbNn 6) bbNN

- A) 1,3,4 B) 1,2,3 C) 4,5,6 D) 2,3,5,6

22. Braxidaktiliya kasalligining barmoqlar qisqarishidan tortib ko'proq qisqarishigacha bo'lgan shakllari bor. Barmoqlari qisqa odam geterozigota genotipga ega. Ushbu mutatsiga uchragan odamlar shajarasini o'rganish tufayli bu belgi fenotipda asosiy va modifikator genlar ishtirokida namoyon bo'lishi aniqlandi. Modifikator retsessiv genlar (n) gomozigota holatda bo'lsa, barmoqlar keskin qisqarishiga olib keladi. Modifikator genlarning dominant alleli (N) gomozigota holatda barmoqlarning kamroq qisqarishiga olib keladi, geterozigota esa o'rtacha qisqarishiga sababchi bo'ladi. Shunga ko'ra odamlarning genotipi bbnn (1) va BbNN (2) bo'lsa, ularning fenotipini aniqlang.

- A) 1-keskin braxidaktiliya; 2-o'rtacha braxidaktiliya uchragan
B) 1-barmoqlari qisqarmagan; 2-keskin braxidaktiliyaga uchragan
C) 1-braxidaktiliyaga uchramagan; 2-barmoqlari kamroq qisqargan
D) Barmoqlar kamroq qisqargan; 2-braxidaktiliyaga uchramagan;

23. Karp baliqlarining bir turida tangachalar butun tanasi bo'ylab bir xil joylashadi, ikkinchi turida tangachalari bir necha qator tasma shaklida joylashadi. Tajribada tangachasi bir xil joylashgan karplar chatishtirilishidan olingan 4500 ta avlodagi baliqlarning 3000 tasi tangachasi bir xil, 1500 tasida tasmasimon joylashganligi, shuningdek, naslning 25 foizi embrionlik davrida nobud bo'lganligi aniqlandi. Ota-ona va nobud bo'lgan baliqlarning genotipini aniqlang.

- A) $Aa \times AA$; AA B) $Aa \times Aa$; AA
C) $Aa \times Aa$; Aa D) $aa \times aa$; aa

24. Tovuq oyog'i patning bo'lishi ikki juft polimer nokumulyativ dominant genlarga bog'liq. Agar genotipda ulardan bittasi bo'lsa ham tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi. Polimer genlar retsessiv holatda bo'lsa, pat rivojlanmaydi. Oyog'ida pati bor tovuq oyog'ida pati yo'q xo'roz bilan chatishtirilganda F_1 da 120 ta parranda olingan, F_2 da 1120 ta parranda olingan. Chatishtirish uchun olingan dastlabki xo'rozning genotipini aniqlang.

- A) $A_1A_1A_2A_2$ B) $a_1a_1A_2A_2$
C) $A_1a_1A_2a_2$ D) $a_1a_1a_2a_2$

25. 1791-yil Amerika fermalaridan birida kalta oyoqli qo'zichoqlar tug'ildi. Uning ota-onasi normal oyoqli. Bu qo'zichoqlar keyinchalik o'zaro chatishtirilganda avlodning barchasi kalta oyoqli bo'ldi. Seleksiyaning qaysi usuli qo'llanilganini, ota-ona qo'ylar va kalta oyoqli qo'ylarning genotipini aniqlang.

- A) Bir zotga mansub hayvonlarni o'zaro chatishtirish usuli $Aa \times Aa$; aa
B) Har xil zotga mansub hayvonlarni o'zaro chatishtirish usuli $AA \times AA$; AA
C) Turlararo chatishtirish va yalpi tanlash usullari; $Aa \times Aa$; AA , Aa

D) Yakka tanlash va bir zotga mansub hayvonlarni o'zaro chatishtirish usullari; $Aa \times aa$; aa

26. Odamlarda tug'ma karlik, albinizm, silga moyillik autosomada joylashgan genlar orqali irsiylanadi. Silga moyil, albinos, normal eshitadigan odamning genotipini aniqlang.

- A) $Aabbcc$ B) $AabbCC$ C) $aaBbcc$ D) $aabbCc$

26. Bug'doy doninig rangi ikki juft noallel kumulyativ polimer genlar faoliyatiga bog'liq. Oq va qizil rangli bug'doylar chatishtirilganda F_2 da 6400 ta o'simlik olingan.

Ularning necha foizini pushti donli o'simliklar tashkil qiladi.

- A) 25 B) 37,5 C) 6,25 D) 60

28. Drozafila pashshasida tanasining kulrang bo'lishi qora rang ustidan, normal qanot kalta qanot ustidan dominantlik qiladi. Bu genlar bitta autosomada joylashgan bo'lib, birikkan holda irsiylanadi. Ko'z rangining qizil bo'lishi oq rang ustidan dominantlik qiladi. Bu genlar X-xromasomada joylashgan. Uchta belgisi bo'yicha geterozigota urg'ochi pashshada krosingover kuzatilmasa, necha xil gameta hosil qiladi.

- A) 16 B) 8 C) 4 D) 6

29. A va B genlar autasomada joylashgan birikkan genlar bo'lib, ular orasida chalkashuv 24 % ni tashkil etsa, digeterozigota (dominant genlarning biri otadan, biri onadan o'tgan) hosil qiladigan gametalar miqdorini (%) aniqlang.

- A) 38-Ab, 38-ab, 12-aB, 12-AB
B) 38-aB, 38-ab, 12-AB, 12-Ab
C) 12-AB, 12-ab, 38-aB, 38-Ab
D) 38-AB, 38-ab, 12-aB, 12-Ab

30. Odamda shapko'rlik normal ko'rishga nisbatan dominant holda irsiylanadi. Onasi shapko'rlik bilan kasallangan (gomozigota), otasi polidaktiliya (gomozigota) qiz otasi shapko'r, polidaktiliya (digomozigota) onasi sog'yigitga turmushga chiqdi. Shu oilada tug'iladigan normal ko'radigan farzandlarning necha foizi digomozigotali (a); necha foizining genotipi onasiga aynan o'xshash (b)?
1) 50%; 2) 0%; 3) 18,75%

A)a-3; b-1 B)a-1; b-3 C)a-1; b-2 D)a-3; b-2

31. Odamda shapko'rlik normal ko'rishga nisbatan dominant holda irsiylanadi. Onasi shapko'rlik bilan kasallangan (gomozigota), otasi polidaktiliya (gomozigota) qiz otasi shapko'r, polidaktiliya (digomozigota) onasi sog'yigitga turmushga chiqdi. Shu oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizining a) genotipi otasiga o'xshash; b) genotipi onasiga o'xshash; c) polidaktiliya mutatsiyasi sodir bo'lgan; d) polidaktiliya mutatsiyasi kuzatilmaydi?
1) 18,75%; 2) 6,25%; 3) 25%; 4) 50%; 5) 0%;
6) 56,25%; 7) 75%

A) a-3; b-3; c-3; d-7 B) a-3; b-3; c-7; d-3
C) a-1; b-3; c-5; d-7 D) a-2; b-4; c-6; d-1

32. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota qo'y ko'z, sepkilli, taram-taram sochli erkak bilan ko'k ko'zli, sepkilsiz, silliq sochli ayol oilasida tug'lishi mumkin bo'lgan farzandlarning genotipik sinflari soni to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

A) 4 B) 12 C) 8 D) 6

33. Andalus tovuq'ining tanasini patli bo'lishi patsizlik ustidan, boshida tojning bo'lishi tojsizlik ustidan to'liq dominantlik qiladi. Patning qizil rangda bo'lishi oq rangga nisbatan chala dominantlik qilib, geterozigotalarda pushti rang namoyon bo'ladi. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota tovuq va xo'rozlarning avlodida necha xil fenotipik guruh hosil bo'ladi?

A) 27 B) 12 C) 8 D) 18

34. Drozofila pashshasida tananing kulrangliligi qoraligi ustidan, qanotlarining normalligi kaltaligi ustidan ustunlik qiladi. Ko'zlarining qizil bo'lishi oq bo'lishiga nisbatan ustunlik qiladi. Trigeterozigota urg'ochi pashsha hamma belgisi bo'yicha retsessiv erkak pashsha bilan chatshtirilganda, avlodning necha foizi kalta qanotli, kulrang tanali, oq ko'zli bo'ladi?

A) 12,5 B) 4,25 C) 25 D) 8,5

35. Odamda A va B genlari bitta xromasomada joylashgan va ular orasidagi masofa 8 Morganidaga teng. C geni boshqa nogomologik xromasomada joylashgan. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota organizm hosil qiladigan gametalar va ularning foizi aniqlang.

1) ABC-23; 2) ABc-23; 3) abC-23; 4) abc-23; 5) ABC-12,5; 6) ABc-12,5; 7) abC-12,5; 8) abc-12,5;
9) AbC-2; 10) Abc-2; 11) aBC-2; 12) aBc-2; 13) AbC-12,5; 14) Abc-12,5; 15) aBC-12,5; 16) aBc-12,5

A) 1,2,3,4,5,6,7,8 B) 1,2,3,4,9,10,11,12
C) 5,6,7,8,9,10,11,12 D) 5,6,7,8,13,14,15,16

N-10 Genetika

1. Tovuqlarda oyoqning patli bo'lishi katta (P) patsiz bo'lishi kichik (p), no'xatsimon toj (B), oddiy toj (b) chatishtirish uchun olingan A va B xo'roz C va D tovuqlarning hammasida oyoqlari patli, tojlari no'xatsimon edi. A xo'roz ikkala tovuq bilan chatishtirilganda faqat no'xatsimon tojli, oyoqg'i patli jo'jalar olindi. B xo'roz C tovuq bilan chatishtirilganda no'xatsimon tojli oyoqlari patli va patsiz jo'jalari olindi. D tovuq bilan chatishtirilgandano'xatsimon va oddiy tojli oyoqlari patli jo'jalar olindi. C tovuq genotipi toping?

A) PpBB B) PpBb C) PPBB D) PPBb

2. Bug'doy donining rang 2 juft komulyativ genlarga bog'liq bo'lib $A_1a_1A_2a_2$ va $A_1a_1a_2a_2$ genotipli bug'doylar chatishtirilsa olingan avlod genotipi qanday nibati?

- A) 1:4:6:4:1 B) 1:1:1:1:1:1:1:1
C) 3:2:1:1:1 D) 1:1:2:2:1:1

3. Odamlarda kurak tishlarining yo'qligi erkaklarga nisbatan ayollarda 2 barobar ko'p uchraydi. Otasi kasal, ona sog'lom bo'lsa tug'ulgan o'g'il farzandlar sog'lom, ota sog' ona gomozigotasi kasal bo'lsa farzandlarning barchasi kasal tug'iladi; sog'lom ota onalardan tug'ilgan farzandlarning barchasi sog'lom, ushbu kasallikning irsiylanishi qanday?

- A) Y xromosomaga birikkan gen.
B) X xromosomaga birikkan damionant gen.
C) X xromosomaga birikkan retsessiv gen.
D) autasomada birikkan retsessiv gen

4. D vitamini bilan davolanmaydigan raxit kasalligi ayollarda erkaklarga nisbatan 2 barobar ko'p uchraydi, otasi kasal onasi gomozigota kasal bo'lsa, farzandlarning barchasi kasal tug'iladi. Sog'lom otalardan tug'ilgan farzandlarning barchasi sog'lom bo'ladi, ushbu kasallikning irsiylanishi qanday ?

- A) Y xromosomaga birikkan gen.
B) X xromosomaga birikkan damionant gen.
C) X xromosomaga birikkan retsessiv gen.
D) autasomada birikkan retsessiv gen

5. Bug'doy donining rang 2 juft komulyativ genlarga bog'liq bo'lib $A_1a_1A_2A_2$ va $a_1a_1a_2a_2$ genotipli bug'doylar chatishtirilsa olingan avlod genotipik nisbatini toping?

- A) 2:1 B) 100 % C) 1:1 D) 3:1

6. Odamda rang ajrata olmaslik daltonizm va shapko'rlik jinsiy xromosomada joylashgan bo'lib retsessiv holda irsiylanadi ular orasida chalkashuv 48 % tashkil qiladi, normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan ayol (otasi daltonik, onasi shapko'r), normal ko'radigan erkakga turmushga chiqsa rang ajrata olmaydigan farzand tug'lishi ehtimoli?

- A) 12 B) 13 C) 25 D) 24

7. Odamda rang ajrata olmaslik daltonizm va shapko'rlik jinsiy xromosomada joylashgan bo'lib retsessiv holda irsiylanadi ular orasida chalkashuv 48 % tashkil qiladi, normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan ayol (otasi daltonik, onasi shapko'r), normal ko'radigan erkakga turmushga chiqsa 2 la belgi bilan kasallangan farzand tug'lishi ehtimoli?

- A) 12 B) 13 C) 25 D) 24

8. Odamda rang ajrata olmaslik daltonizm va shapko'rlik jinsiy xromosomada joylashgan bo'lib retsessiv holda irsiylanadi ular orasida chalkashuv 48 % tashkil qiladi, normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan ayol (otasi daltonik onasi shapko'r), normal ko'radigan erkakga turmushga chiqsa genotip jihatdan sog'lom farzand tug'lishi ehtimoli?

- A) 12 B) 13 C) 25 D) 24

9. Odamda rang ajrata olmaslik daltonizm va shapko'rlik jinsiy xromosomada joylashgan bo'lib retsessiv holda irsiylanadi ular orasida chalkashuv 48 % tashkil qiladi, normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan ayol (otasi daltonik, onasi shapko'r), normal ko'radigan erkakga turmushga chiqsa faqat rang ajrata olmaydigan farzand tug'lishi ehtimoli?

- A) 12 B) 13 C) 25 D) 24

10. Juni hurpaygan va normal uzulikdagi sichqon bilan silliq va uzun junli sichqon chashtirilganda 1- avlodda hurpaygan va normal junli sichqonchalar olindi. Agar genlar orasidagi masofa yaqin bo'lib F1 avlod bilan taxliliy chatishtirish o'tkazilganda 54 ta normal silliq 198 ta normal hurpaygan 196 ta uzun silliq, 48 ta uzun hurpaygan sichqonlar olindi, sichonlar genining chalkashuv foizini hisoblang?

A) 20,6 % B) 24 % C) 28% D) 19,6 %

11. Juni hurpaygan va normal uzulikdagi sichqon bilan silliq va uzun junli sichqon chashtirilganda 1- avlodda hurpaygan va normal junli sichqonchalar olindi. Agar genlar orasidagi masofa yaqin bo'lib F1 avlod bilan taxliliy chatishtirish o'tkazilganda 54 ta normal silliq 198 ta normal hurpaygan 196 ta uzun silliq, 48 ta uzun hurpaygan sichqonlar olindi, genotipda ota onadan farq qiluvchi sichqonlar necha % ni tashkil qiladi?

A) 20,6 % B) 24 % C) 28% D) 19,6 %

12. Juni hurpaygan va normal uzulikdagi sichqon bilan silliq va uzun junli sichqon chashtirilganda 1- avlodda hurpaygan va normal junli sichqonchalar olindi. Agar genlar orasidagi masofa yaqin bo'lib F1 avlod bilan taxliliy chatishtirish o'tkazilganda 54 ta normal silliq 198 ta normal hurpaygan 196 ta uzun silliq, 48 ta uzun hurpaygan sichqonlar olindi, genotipi ota-onaga o'xshashn sichqonlar necha % ni tashkil qiladi?

A)76% B) 72% C) 79,4 % D)80,4%

13. Daltonizm va shapko'rlikni yuzaga chiqaradigan retsessiv genlar X xromosomalarda joylashgan bo'lib birikkan holda irsiylanadi. Onasi shapko'r, otasi daltonik bilan kasallangan o'zining ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol faqat shapko'rlik bilan kasallangan erkakga turmushga chiqdi. Agar ayol krossingoveri 40%

ga teng bo'lsa oilada sog'lom farzandlar tug'ilish ehtimoli?

A) 35% B) 42% C) 59% D) 30%

14. Daltonizm va shapko'rlikni yuzaga chiqaradigan retsessiv genlar X xromosomalarda joylashgan bo'lib birikkan holda irsiylanadi. Onasi shapko'r, otasi daltonik bilan kasallangan o'zining ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol faqat shapko'rlik bilan kasallangan erkakga turmushga chiqadai. Agar ayol krossingoveri 40% ga teng bo'lsa oilada tug'ilgan farzandlarning ikki belgi bo'yicha sog'lom qiz tug'ilish ehtimoli?

A)10% B)15% C)25% D) 35%

15. Daltonizm va shapko'rlikni yuzaga chiqaradigan retsessiv genlar X xromosomalarda joylashgan bo'lib birikkan holda irsiylanadi. Onasi shapko'r, otasi daltonik bilan kasallangan o'zining ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol faqat shapko'rlik bilan kasallangan erkakga turmushga chiqadai. Agar ayol krossingoveri 40% ga teng bo'lsa oilada kasal farzandlarning tug'ilish ehtimoli?

A)70% B)65% C) 75% D) 85%

16. Daltonizm va shapko'rlikni yuzaga chiqaradigan retsessiv genlar X xromosomalarda joylashgan bo'lib birikkan holda irsiylanadi. Onasi shapko'r, otasi daltonik bilan kasallangan ayol o'zining ko'rish qobiliyati normal ayol faqat shapko'rlik bilan kasallangan erkakga turmushga chiqadai. Agar ayol krossingoveri 40% ga teng bo'lsa oilada tug'ilgan farzandlarning ikki belgi bo'yicha sog'lom o'g'il tug'ilish ehtimoli?

A) 10% B) 15% C)25% D) 20%

17. Daltonizm va shapko'rlikni yuzaga chiqaradigan retsessiv genlar X xromosomalarda joylashgan bo'lib birikkan holda irsiylanadi. Onasi shapko'r, otasi daltonik bilan kasallangan o'zining ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol faqat shapko'rlik bilan kasallangan erkakga turmushga chiqdi. Agar ayol krossingoveri 40% ga teng bo'lsa oilada tug'ilgan farzandlarning bir belgi bo'yicha kasal qiz tug'ilish ehtimoli?

A) 25% B) 15% C) 10% D) 50%

18. Daltonizm va shapko'rlikni yuzaga chiqaradigan retsessiv genlar X xromosomalarda joylashgan bo'lib birikkan holda irsiylanadi. Onasi shapko'r, otasi daltonik bilan kasallangan o'zining ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol faqat shapko'rlik bilan kasallangan erkakga turmushga chiqdi. Agar ayol krossingoveri 40% ga teng bo'lsa oilada tug'ilgan farzandlarning bir

belgi bo'yicha sog'lom qiz tug'ilish ehtimoli?

A) 5% B) 10% C) 15% D) 25%

19. Tovuqlar oyog'ida pat bo'lishi ikki juft noalel gen tomonidan belgilanib nomokulyativ polimer tipda irsiylanadi. Agar genotipga dominant gen bo'lsa tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi, agar genlar retsessiv bo'lsa pat hosil bo'lmaydi, oyog'ida pati yo'q tovuq dominant gomozigotali patli xo'roz bilan chatishtirilganda F_1 120 ta, F_2 1120 ta jo'ja olindi, F_2 genotipik sinflarning necha foizida oyog'ida pati bo'ladi?

A) 66% B) 88% C) 56,25% D) 15%

20. Tovuqlar oyog'ida pat bo'lishi ikki juft noalel gen tomonidan belgilanib nomokulyativ polimer tipda irsiylanadi. Agar genotipga dominant gen bo'lsa tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi, agar genlar retsessiv bo'lsa pat hosil bo'lmaydi, oyog'ida pati yo'q tovuq dominant digomozigota patli xo'roz bilan chatishtirilganda

F_1 120 ta, F_2 1120 ta jo'ja olindi, F_2 ga olingan patli jo'jalarning necha foizi digomozigotali bo'ladi?

A) 15% B) 10% C) 12% D) 20%

21. Tovuqlar oyog'ida pat bo'lishi ikki juft noalel gen tomonidan belgilanib nomokulyativ polimer tipda irsiylanadi. Agar genotipga dominant gen bo'lsa tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi, agar genlar retsessiv bo'lsa pat hosil bo'lmaydi, oyog'ida pati yo'q tovuq dominant gomozigota patli xo'roz bilan chatishtirilganda F_1 120 ta, F_2 1120 ta jo'ja olindi, F_2 olingan avlodning nechtasida oyog'i patli bo'ladi?

A) 1050 B) 630 C) 70 D) 490

22. Tovuqlar oyog'ida pat bo'lishi ikki juft noalel gen tomonidan belgilanib nomokulyativ polimer tipda irsiylanadi. Agar genotipga dominant gen bo'lsa tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi, agar genlar retsessiv bo'lsa pat hosil bo'lmaydi, oyog'ida pati yo'q tovuq dominant gomozigota patli xo'roz bilan chatishtirilganda F_1 120 ta, F_2 1120 ta jo'ja olindi, nechitasi o'ziga o'xshagan organizm bilan chatishtirilsa ajralish yuz bermaydi?

A) 280 B) 240 C) 224 D) 112

23. Tovuqlarning kalta oyoqli zoti polizlarni titkilab tashlamaydi, lekin bu belgi tovuq tumshug'ining qisqarishiga ham sababchi bo'ladi, natijada gomozigotali jo'jalar tuxumini yorib chiqmay halok bo'ladi, kalta oyoqli tovuq yetishtiruvchi inkubatorlarda kalta va uzun oyoqli qushlar avlodida tuxumdan chiqqan 3000 ta jo'janing 1550 tasi kalta oyoqli bo'ldi, nazariy jihatdan olinishi kerak bo'lgan kalta oyoqli jo'jalarning inkubatordan olingan kalta oyoqli jo'jalardan farqi?

A) 50 taga kam
B) 50 taga ko'p

- C) 550 taga kam
D) 550 taga ko'p
24. Tovuqlarning kalta oyoqli zoti polizlarni titkilab tashlamaydi, lekin bu belgi tovuq tumshug'ining qisqarishiga ham sababchi bo'ladi, natijada gomozigotali jo'jalar tuxumini yorib chiqmay halok bo'ladi, kalta oyoqli tovuq yetishtiruvchi inkubatorlarda kalta va uzun oyoqli qushlar avlodida tuxumdan chiqqan 3000 ta jo'janing 1550 tasi kalta oyoqli bo'ladi, halok bo'lgan jo'jalar soni?
- A) 50 B) 1450 C) 550 D) 0 ta
25. Genotipi har xil bo'lgan oq gulli va xushbo'y no'xat navlari chatishtirilganda 1-avlodda qizil gulli o'simlik olindi, 1-avlod duragaylari o'zaro chatishtirilganda F_2 da olingan o'simliklar 9/16 qismi qizil, 7/16 qismi oq gulli bo'ldi, qizil gulli o'simliklar necha xil genotipik guruh hosil qiladi?
- A) 9 xil B) 5 xil C) 4 xil D) 2xil
26. Hushbo'y no'xot navlari chatishtirilganda 1-avlodda qizil gulli o'simlik olindi, 1-avlod duragaylari o'zaro chatishtirilganda F_2 da olingan o'simliklar 9/16 qismi qizil, 7/16 qismi oq gulli bo'ldi, oq gulli o'simliklar necha xil genotipik guruh hosil qiladi?
- A) 9 xil B) 5 xil C) 4 xil D) 2xil
27. Odamlarda qo'ng'ir ko'z, ko'k ko'z ustidan to'liq jingalak soch silliq soch ustidan chala dominantlik qiladi. Geterozigotalar to'liqinsimon bo'ladi. 2 juft belgi nazarda tutilgan holda to'liqinsimon sochli odamlarda necha tipda genotipik guruh hosil bo'ladi?
- A) 3 ta B) 7 ta C) 9 ta D) 6 ta
28. Odamlarda qo'ng'ir ko'z, ko'k ko'z ustidan to'liq jingalak soch silliq soch ustidan chala dominantlik qiladi. Geterozigotalar to'liqinsimon bo'ladi. 2 juft belgi nazarda tutilgan holda qo'ng'ir ko'zli odamlarda necha tipda genotipik guruh hosil bo'ladi?
- A) 3 ta B) 7 ta C) 9 ta D) 6 ta
29. Sariq rangli burushgan va yashil rangli silliq no'xatlar o'zaro chatishtirilganda F_2 da sariq silliq, yashil burushgan, sariq burushgan, yashil silliq no'xatlar olindi. 2 juft belgi nazarda tutilgan holda silliq no'xatlar necha tipdagi genotipik guruh hosil qiladi?
- A) 3 B) 7 C) 9 D) 6
30. Tovuqlarning kalta oyoqli zoti polizlarni titkilab tashlamaydi, lekin bu belgi tovuq tumshug'ining qisqarishiga ham sababchi bo'ladi, natijada gomozigotali jo'jalar tuxumini yorib chiqmay halok bo'ladi, kalta oyoqli tovuq yetishtiruvchi inkubatorlarda kalta va uzun oyoqli qushlar avlodida tuxumdan chiqqan 3000 ta jo'janing 1900 tasi kalta oyoqli bo'ldi, nazariy jihatdan olinishi kerak bo'lgan kalta oyoqli jo'jalarning inkubatoridan olingan kalta oyoqli jo'jalardan farqi?
- A) 100 taga ko'p
B) 100 taga kam
C) 400 taga ko'p
D) 400 taga kam
31. Makkajo'xori urug'ining silliq va bo'yalgan shakli bilan burushgan va bo'yalmagan shakli chatishtirilganda 1-avlodda silliq va bo'yalgan urug'lar hosil bo'ldi, bu genlar orasida masofa yaqin bo'lib digeterozigota o'simliklar 2 belgisi bo'yicha retsessiv organizm bilan chatishtirilganda avlodda 8304 bo'yalgan silliq; 298 burushgan; 304 silliq bo'yalmagan; 8326 ta burushgan bo'yalmagan urug'li

makkajo'xori o'simligi olingan, genotipi ota-onaga o'xshash o'simliklar necha % ni tashkil etadi?

A) 56,25 B) 50 C) 96,51 D) 42,5

32. Makkajo'xori urug'ining silliq va bo'yalgan shakli bilan burushgan va bo'yalmagan shakli chatishtirilganda 1-avlodda silliq va bo'yalgan urug'lar hosil bo'ldi, bu genlar orasida masofa yaqin bo'lib digeterozigota o'simliklar 2 belgisi bo'yicha retsessiv organizm bilan chatishtirilganda avlodda 8304 bo'yalgan silliq; 298 burushgan; 304 silliq bo'yalmagan; 8326 ta burushgan bo'yalmagan urug'li makkajo'xori o'simligi olingan, genotipi jihatdan ota-onadan farqli qiluvchi o'simliklar necha % ni tashkil qiladi?

A) 3,49 B) 50 C) 43,75 D) 57,5

33. Makkajo'xori doni rangli endospermasi tekis bo'lishini ta'minlovchi genlar dominant birikkan holda irsiylanadi, gomozigota doni rangli, endospermasi tekis bo'lgan o'simlik retsessiv gomozigota o'simlik bilan chatishtirilganda olingan o'simlik formasi retsessiv belgili forma bilan qayta chatishtirilganda naslda jami 7250 ta o'simlikdan 3478 tasi doni rangli endospermasi tekis va 3482 tasi doni rangsiz endospermasi burushgan o'simliklar olingan bo'lsa, krassengover % ini toping?

A) 17 B) 40 C) 4 D) 8

34. Norka juning jigarrang bo'lishi dominant noallel A-B- genlarni genotipda birgalikda kelishi natijasida yuzaga keladi. Genotipda ushbu dominant genlardan biri bo'lsa yoki umuman bo'lmasa platina rangli jun yuzaga chiqadi. Agar digeterozigota organizmlar o'zaro chatishtirilganda nazariy jihatdan 80 ta nasl olinsa avlodning nechitasi jigarrang junga ega bo'ladi?

A) 45 B) 40 C) 35 D) 800

35. Norka juning jigarrang bo'lishi dominant noallel A-B- genlarni genotipda birgalikda kelishi natijasida yuzaga keladi. Genotipda ushbu dominant genlardan biri bo'lsa yoki umuman bo'lmasa platina rangli jun yuzaga chiqadi. Agar digeterozigota organizm o'zaro chatishtirilganda nazariy jihatdan 80 ta nasl olinsa avlodning nechitasi platina rangga ega bo'ladi?

A) 45 B) 40 C) 35 D) 80

36. Piyoz po'stining qizil rangi allel bo'lmagan A.-B. genlarining ta'siri natijasida yuzaga chiqadi. Genotipda ushbu noallel dominant genlardan faqat bittasining bo'lishi sariq rangni, dominant genlarni uchramasligi oq rangni belgilaydi. Genotipi har xil bo'lgan bir belgi bo'yicha geterozigotali qizil piyozlar o'zaro chatishtirilganda hosil bo'lgan nasllarning necha % i digomozigotali bo'ladi?

A) 25% B) 50% C) 75 % D) 0%

37. Piyoz po'stining qizil rangi allel bo'lmagan A.-B. genlarining ta'siri natijasida yuzaga chiqadi. Genotipda ushbu noallel dominant genlardan faqat bittasining bo'lishi sariq rangni, dominant genlarni uchramasligi oq rangni belgilaydi. Genotipi har xil bo'lgan bir belgi bo'yicha geterozigotali qizil piyozlar o'zaro chatishtirilganda hosil bo'lgan nasllarning necha % i bir belgi bo'yicha geterozigota bo'ladi?

A) 25% B) 50% C) 75 % D) 0%

38. Makkajo'xorida kraxmalli endosperm dominant A, mutatsion endosperm a genlari orqali irsiylanadi. Makkajo'xorining bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 80% , 20% ni tashkil qiladi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 4800 ta o'simlik olingan bo'lsa ulardan nechitasi gomozigota formadagi kraxmalli endospermga ega ekanligini aniqlang?

A) 3072 B)768 C) 192 D) 960

39. Makkajo'xorida kraxmalli endosperm dominant A, mutatsion endosperm a genlari orqali irsiylanadi. Makkajo'xorining bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 80% , 20% ni tashkil qiladi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 4800 ta o'simlik olingan bo'lsa ulardan nechitasi don mutatsion endospermga ega ekanligini aniqlang?

A) 3072 B)768 C)192 D)960

40. Makkajo'xorida kraxmalli endosperm dominant A, mutatsion endosperm a genlari orqali irsiylanadi. Makkajo'xorining bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 80% , 20% ni tashkil qiladi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 4800 ta o'simlik olingan bo'lsa ulardan nechitasi kraxmalli endospermga ega ekanligini aniqlang?

A) 3072 B) 3668 C) 4608 D) 3840

41. Dengiz cho'chqalarida yungning kaltaligi A, uzun a ustidan dominantlik qiladi. Dengiz cho'chqalarining ma'lum bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 60%, 40% ni tashkil etadi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 1800 ta individ olingan bo'lsa shulardan nechtasini yungi uzun ekanligini aniqlang?

A) 288 B) 648 C) 432 D) 1512

42. Dengiz cho'chqalarida yungning kaltaligi A, uzun a ustidan dominantlik qiladi. Dengiz cho'chqalarining ma'lum bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 60%, 40% ni tashkil etadi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 1800 ta individ olingan bo'lsa shulardan nechtasini yungi getrazigotali kalta ekanligini aniqlang?

A) 288 B) 648 C) 864 D) 0

43. Dengiz cho'chqalarida yungning kaltaligi A, uzun a ustidan dominantlik qiladi. Dengiz cho'chqalarining ma'lum bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 60%, 40% ni tashkil etadi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 1800 ta individ olingan bo'lsa shulardan nechtasini yungi gomozigotali ekanligini aniqlang?


A) 648 B) 288 C) 936 D) 0

44. Dengiz cho'chqalarida yungning kaltaligi A, uzun a ustidan dominantlik qiladi. Dengiz cho'chqalarining ma'lum bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 60%, 40% ni tashkil etadi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 1800 ta individ olingan bo'lsa shulardan nechtasini yungi kalta ekanligini aniqlang?

A) 288 B) 648 C) 432 D)1512

45. Javdarda poyasining tukli bo'lishi A dominant tuksiz bo'lishi retsessiv a genlari bilan irsiylanadi. Javdarning ma'lum bir populatsiyasida ushbu genlar mos ravishda 80%, 20% ni tashkil qiladi. Agar geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda 1000 ta o'simlik olingan bo'lsa shulardan nechitasi gomozigotali tukli ekanligini aniqlang?

A) 640 B) 500 C) 900 D) 360



Javoblar.

N-1. Nuklein kislotalariga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		A	C	B	A	A	A	A	B	A
1	D	B	B	D	C	C	B	C	C	B
2	C	A	C	B	C	B	C	B	A	D
3	D	D	A	A	D	D	D	C	C	B
4	A	D	B	B	B	B	B	A	A	C
5	B	A	A	D	D	B	A	D	D	A
6	A	A	B	B	C	C				

N-2. Nuklein kislotalariga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		B	C	D	A	A	A	A	D	C
1	B	A	B	B	B	C	C	D	B	B
2	C	C	B	B	C	C	A	B	A	C
3	A	B	A	B	C	A	D	A	A	B
4	D									

N-3. Nuklein kislotalariga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		D	A	A	A	A	C	C	D	D
1	C	A	C	A	A	B	C	A	A	-
2	A	A	A	A	A	B	D	D	B	B
3	A	A	A	B	C	A	A	D	C	B
4	B									

N-4. Moddalar almashinuviga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		B	A	C	A	D	B	B	B	C
1	A	B	D	B	B	B	A	A	B	A
2	B	A	A	B	B	C	A	B	A	B
3	A	D	C	B	C	A	A	A	B	C
4	D	A	A	B	D	A	A	B	A	A
5	C	B	B	C	C	C	B	C	B	A
6	D	A	A	A	D	B	C	A	D	C
7	D	A	D	A	D	D	A	B	C	C
8	C	C	D	B	B	B	A	C	C	C
9	A	D	C	C	C	B	B	B	A	B
10	C									

N-5. Genetikaga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		C	C	C	D	D	C	A	A	A
1	A									

N-6. Genetikaga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		D	B	B	C	D	C	C	C	C
1	D	D	A	C	B	D	D	B	A	A
2	B	B	A	A	B	B	B	A	C	A
3	B	A	B	B	B	B	B	B	D	A
4	B									

N-7. Genetikaga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		A	D	C	B	C	A	A	B	C
1	B	B	B	C	B	B	A	A	A	C
2	C	C	C	B	A	D	D	B	D	C
3	D	D	A	A	B	C	A	A	B	C
4	A	A	B	A	B	B				

N-8. Genetikaga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		D	A	A	C	D	D	B	D	B
1	A	A	A	A	A	A	D	A	A	A
2	B	C	B	A	B	C	D	A	A	C
3	A	C	C	B	B	D	A	D	C	D
4	D	C	B	B	B	A	A	A	D	A
5	A									

N-9. Genetikaga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		B	A	C	B	A	D	C	B	C
1	D	B	A	B	A	A	C	D	B	C
2	B	B	C	B	C	A	B	B	C	C
3	C	B	C	B	B	B				

N-10. Genetikaga doir masalalar

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0		A	D	B	B	C	C	A	D	B
1	A	A	C	A	C	B	A	A	D	B
2	D	A	A	A	D	C	B	A	D	D
3	C	C	A	C	A	C	A	B	A	C
4	C	A	C	C	D	A				

Mundarija

1. Nuklein kislotalarga doir N-1.....	1
2. Nuklein kislotalarga doir N-2.....	7
3. Nuklein kislotalarga doir N-3.....	10
4. ATF ga doir N-4.....	14
5. Gametaga doir N-5	22
6. Genetikaga doir N-6	23
7. Genetikaga doir N-7.....	29
8. Genetikaga doir N-8	35
9. Genetikaga doir N-9.....	42
10. Genetikaga doir N-10.....	47
11. Javoblar.....	54